O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI

X.N.Muzaffarova, D.Tangirova

INKLYUZV TA'LIM

(O`quv-metodik qo`llanma)

Jizzax -2011

X.N.Muzaffarova, D.Tangirova “Inklyuzv ta’lim” fani bo`yicha o`quv metodik qo`llanma / Jizzax davlat pedagogika institute/. 2011 y.

KIRISH

Respublikamizda olib borilayotgan barcha islohotlarning maqsadi davlatimz kelajagiga mustahkam poydevar qurishdan iborat. Bu poydevor sog'lom, yetuk va barkamol shaxslarni tarbiyalab voyaga yetkazish natijasida yaratiladi. Shuning uchun ham «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» va «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun qabul qilindi. Ta'lim sohasidagi bu islohotlar bugungi kunda o'z samarasini bermoqda. Mazkur huquqiy me'yoriy hujjatlar doirasi maxsus ehtiyojli bolar ta'lim-tarbiyasini ham qamrab olgan.

Maxsus ehtiyojli bolalar ta'lim tarbiyasi masalasi bugungi kunda eng dolzarb masalalar sirasiga aylanib bormokda.

Maxsus ta'lim imkoniyati cheklangan bolalar uchun ta'lim tizimi sifatida rivojlangan. Ushbu ta'lim imkoniyati cheklangan bolalarning ehtiyojlarini umumta'lim muasasalarida qondirib bo'lmaydi degan taxminlar asosida qurilgan. Maxsus ta'lim butun dunyoda maktab yoki internat shaklida, shuningdek umumta'lim maktablarining katta bo'lmagan qismlari sifatida faoliyat yuritadi.

Maxsus ehtiyojli bolalarning maxsus ta'lim tizimda o'qitilishi ularning maktabni tugatgach ijtimoiy jamiyatga moslashib ketishlarini qiyinlashtiradi. Shuningdek ularning o'z oilasidan uzokda bo'lishlariga majbur qiladi. Bu toifa bolalar boqimandalikka o'rganib qoladilar, o'z-o'ziga xizmat qilishlarida qiyinchiliklarga duch keladilar. Bundan tashqari juda ko'plab maxsus ehtiyojli bolalar ta'limdan chetda qolib ketmokdalar. Hozirgi kunda Respublikamizda alohida yordamga muhtoj bolalarni rivojlanish darajasi, imkoniyati nuqson xususiyatlari va qobiliyatlariga ko'ra maxsus yoki umumta'lim tizimida ta'lim olishini amalga oshirish maqsadida inklyuziv ta'lim siyosati amalga oshirilmokda.

Biroq inklyuziv ta'limning mazmun mohiyati to'g'risidagi bilim va ma'lumotlar hali jamiyatda yetarli emas. «Inklyuziv» va «integrasiyalashgan» atamalari ko'pincha bir xil ma'noda ishlatiladi. Shunga qaramasdan falsafada ushbu tushunchalar orasida juda katta farq bor.

Nogiron bolani oddiy sharoitga joylashtirish integrasiyaga qarab qo’yilgan birinchi qadamdir.

Integrasiyalashgan ta’lim bu-diqqat markazida bolaning aynan maktabga kelib ketish muammosi turgan, maxsus ehtiyojli bolaning maktabga qatnash jarayonidir.

Integrasiyalashgan ta’limda bolaga muammo sifatida qaraladi. Bu ta’lim tizimining quyidagicha shakllari mavjud:

A) Jismoniy integrasiya. Integrasiyaning bu shakli nogiron va nogiron bo’lmagan bolalar o’rtasidagi jismoniy farqni kamaytirishga qaratilgan. Oddiy maktab bilan yonma-yon joyda nogiron bolalar uchun maxsus bo’lim yoki sinf tashkil qilish mumkin.

B) Funksional integrasiya. Bu shakl nogiron va nogiron bo’lmagan bolalar o’rtasidagi funksional muammolarni kamaytirishga qaratilgan.

V) Ijtimoiy integrasiya. Itegrasiyaning bu shakli ijtimoiy muammolarni kamaytirishga qaratilgan va u nogiron hamda nogiron bo’lmagan bolalar o’rtasidagi o’zaro aloqani qo’llab – quvvatlaydi.

G) Jamiyatga integrasiya qilish kabilar.

Integrasilashgan talim tizimining bir qator quyidagicha chegaralangan tomonlari mavjud:

Umumta’lim muassasalarda kompleks tibbiy-pedagogik yordam olish imkoniyati bo’lmaydi.

Umumta’lim maktab pedagogi maxsus mayetodikani bilmaganligi sababli imkoniyati cheklangan bolalarning maxsus ehtiyojlarini qondirmaydi.

Umumta’lim maktablarida tiflo, surdotexnik vositalar, maxsus tibbiyot uskunalar bo’lmaydi.

Sinfda o’quvchilar soni 25 tadan-35 gacha yetadi va oqibatda ularning barchasiga ko’p vaqt ajrata olmaydi.

Umumta’lim maktablarda o’quvchilarda maxsus malaka va ko’nikmalarni shakllantirish uchun mutaxassislar bo’lmaganligi sababli, imkoniyat topish qiyin.

Umumta’lim maktablarda alohida dastur va darsliklardan foydalanish imkoniyati bo’lmaydi. Inklyuziv ta’lim tizimi integrasilashgan ta’lim tizimidan uzinig mazmun – moxiyati, maqsadi, vazifalari va harakat dasturi bilan farqlanadi.

Inklyuziv ta’lim bu -davlat siyosati bo’lib, nogiron va sog’lom bolalar o’rtasidagi to’siqlarni bartaraf etish, maxsus ta’limga muhtoj bolalar, (ayrim sabablarga ko’ra nogiron bo’lgan) o’smirlar rivojlanishda uchraydigan nuqsonlar yoki iqtisodiy qiyinchiliklardan qat’iy nazar ijtimoiy hayotga moslashtirishga yo’naltirilgan umumta’lim jarayoniga qo’shishni ifodalovchi ta’lim tizimidir.

Inklyuziv ta’lim alohida yordamga muhtoj bolalarni normal rivojlanishdagi bolalar bilan teng xuquqlilik asosida ta’lim tarbiya olishlarini taminlaydi. Shuning uchun ham ahamiyatlidir.

Tavsiyalarda barcha bolalarning ta’lim olish muhitini o’rganib maxsus ehtiyojli bolalarning ta’limiy ehtiyojlariga umumiy baho beriladi. Asosiy ma’no shundaki, sog’ligining yomonlashuvi yoki rivojlanishining orqada qolishi sababli alohida ehtiyojga ega bo’lgan bolalarni ham mumiy ta’lim jarayoniga kushish mumkin. Inklyuziv ta’limda, ta’lim berishning diqqat markazida bola turadi (o’quv rejasi emas) deb bu jarayonga yondashadi. Ushbu yondashuvlar bolalar xar xil sharoitda o’qiydi , rivojlanadi, ma’lumotni xar xil tezlikda qabul qiladi degan e’tirofga asoslanadi. Ular xar bir bolaning shu qatorda maxsus ehtiyojli bolalarning ham ehtiyojlarini qondiradigan ta’lim muxitini yaratib berishga qaratilgan.

Mazkur tavsiyalarning maqsadi - maktablarni maxsus ehtiyojli bolalarnig ehtiyojlariga javob beradigan qilib moslashtiradigan jarayonni qo’llab–quvvatlash. «Moslashtirish» deganda nafaqat maxsus ehtiyojli bolalarni maktabga bemalol borib kelishi, balki shu qatnashdan kandaydir foyda olishi va optimal o’quv rejasining mavjudligidir. Maktab muxiti moslashuvchan bo’lib, bola ta’limdagi tartibga moslashishi kerak deb taxmin qilinmasdan, alohida xar bir bolaning ehtiyojlarini qondirishi kerak.

«Inklyuziv ta’lim” o’z maqsadidan kelib chiqqan holda bir qator quyidagi vazifalarni hal etadi:

- inklyuziv va integrasiyalashgan ta’lim tizimi haqida ma’lumot berish;

-inklyuziv ta’limning huquqiy asoslarini ochib berish;

-inklyuziv ta’limni joriy etish oldida turgan muammolarni o’rganish va bu muammolarni xal etish yo’llarini izlab topish;

-inklyuziv ta’limni qo’llab-quvvatlashnig asoslarini o’rganish;

-inklyuziv ta’lim tizimini joriy qilish tamoyillarini taxlil qilish;

ish tajribalarini taxlil qilish kabilardan iborat.

Shu maqsadni amalga oshirish uchun biz tadqiqotimizning maqsadini va ustivor vazifalarini belgilab oldik.

- jamiyatda nogiron va sog’lom bolalar o’rtasidagi to’siqlarni bartaraf etish, maxsus ta’limga muhtoj bolalar, (ayrim sabablarga ko’ra nogiron bo’lgan) o’smirlar rivojlanishda uchraydigan nuqsonlar yoki iqtisodiy qiyinchiliklardan qat’iy nazar ijtimoiy hayotga moslashtirishga yo’naltirilgan umumta’lim jarayoniga qo’shishni ifodalovchi ta’lim tizimini yo’lga qo’yish va ularga yordam berishdan iborat.

I-BOB. INKLYUZV TA’LIM VA UNING O’ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

1.1. Inklyuziv ta’lim va uning mohiyati

Har qanday jamiyatda kelajak vorislari bo’lmish farzandlarni mas’ulayatni his etadigan, ularni davlat taraqqiyoti va gullab-yashnashiga salmoqli ulush qo’shadigan munosib fuqarolar bo’lib etishishlariga katta umid bilan qaraladi. Dunyoga “O’zbek modeli” deb nom olgan rivojlanish yo’li bilan tobora ko’proq tanilayotgan O’zbekistonda ham bolalar huquqlarini himoya qilishga juda katta e’tibor berilmoqda. Mamlakatimizda maktab, litsey, gimnaziya, kollej kabi bilim dargohlari bilan birgalikda turli maxsus maktab internatlar, mehribonlik uylari faoliyat ko’rsatayotganligi ham fikrimizning isbotidir. Ko’plab davlatlarda bo’lgani kabi O’zbekistonda ham imkoniyati cheklangan bolalar uchun maxsus tashkillangan maktablar bor. Ularning vazifasi bolalarni maxsus o’quv yurtlariga tayyorlashdir.

Bolalarni himoya qilish xalqaro tashkiloti Konvensiya tizimiga o’zining asosiy maqsadi etib bola huquqlarini asos etib oladi. Bola huquqlari xalqaro Konvensiya hamma bolalarning ehtiyojini hisobga olgan, huquq va qobiliyatlarini hurmat qiladigan ta’lim tizimini yaratish g’oyasini ilgari surdi. Chunki har bir bolada – u sog’lommi yoki nogironmi – takrorlanmaydigan xarakter, qiziqish, imkoniyat va bilimga ehtiyoj bor.

Hamma bolalarning ehtiyojlarini hisobga olgan, huquq va qobiliyatlarini hurmat qiladigan, ijtimoiy adolat hamda tenglikka erishishni maqsad qilib olgan ta’limtizimi inklyuziv ta’lim deyiladi.

Inklyuziv ta’lim nogiron bolalarni ta’lim jarayoniga integratsiya qilish hamda umumta’lim maktablarini nogiron bolalarga moslashtirishni ko’zda tutadigan, ijtimoiy adolat va tenglikni bosh maqsad qilib olgan jarayondir.

Inklyuziv ta’lim ijtimoiy modelga asoslanadi va u muammoni bolada emas, balki dastur va metodologiyada deb hisoblaydi. Bunday ta’lim tizimiga ba’zi bir o’zgartirishlar kiritishni taqazo etadi. Bunda har bir bolaning ehtiyojini hisobga olgan holda o’quv rejalari tayyorlanadi, uslubiyotning psixologik muammolari bilan bog’liq tomonlari to’g’ri yo’lga qo’yiladi. Inklyuziv ta’lim hamma bolalarni, shu

jumladan, nogiron bolalarni ham o’zlari xohlagan maktabda o’qishi mumkin, deb xulosa chiqaradi.

Bolaning nogiron bo’lib qolishiga jamiyat, undagi muhit, tushunmovchiliklar, yo’l qo’yilgan xatolar sababchi bo’lgan. Demak, uning o’qishi uchun ham shu jamiyatning o’zi jon kuydirishi shart.

Bola huquqlari xalqaro Konvensiyadan kelib chiqib, yaxshi maktab ta’limini uch xil ibora bilan ta’riflash mumkin, ya’ni:

- **mos keluvchi;**
- **rivojlantiruvchi;**
- **inklyuziv;**

Konvensiyaning 6-moddasida shunday satrlar bor: “Tirik qolish va rivojlanish”. Bu modda mos keluvchi ta’limga taalluqli. Rivojlantiruvchi ta’lim 29-moddada ko’rsatilgan: “Ta’lim shaxsning yuqori darajada rivojlanishiga, iqtidorli, aqliy va jismoniy qobiliyatlarini o’stirishga yo’naltirlgan bo’lishi, bolani erkin jamiyatda faol yashashga tayyorlash kerak”.

2-va 28-moddalar inklyuziv ta’limga tegishli bo’lib, ularda kamsitishning olsini olish, ta’lim hamma uchun qobiliyatiga yarasha ekanligi belgilab qo’yilgan.

Maxsus ehtiyojli bolalar, boshqa bolalar, o’qituvchi va tarbiyachilar faoliyati inklyuziv ta’limda o’ziga xos o’rin tutadi. Bunday ta’lim tufayli maxsus ehtiyojli bolalar:

- jismoniy va ruhiy ehtiyojlarini qondiradilar;
- ijtimoiy xulq va o’ziga-o’zi xizmat ko’rsatish malakalarini yaratadilar;
- ularning imkoniyatlarini hisobga olgan o’quv materiallarini o’zlashtiradilar;
- tengqurlari bilan turli o’yinlarda ishtirok etib rivojlanadilar;
- jismoniy tarbiya darslarida shaxmat-shashka o’yinlari, turli sport musobaqalarida vaqtni kuzatuvchi hakam yoki darvozabon bo’lishlari mumkin;
- do’stona muhitda do’st orttiradilar;
- turli ko’ngilochar va bayramona dasturlarda ishtirok etadilar. Boshqa bolalar esa;
- do’stona muhitni yaratadilar;

- maxsus ehtiyojli bolalarga g’amho’rlik qiladilar,ularni turli o’yinlarga jalb qiladilar;
- sinf tadbirlarida ishtirok etadilar;
- tozalik va ozodalikni ta’minlaydilar;
- jamoa oldida ma’suliyat hissini rivojlantiradilar;
- didaktik va o’yin vositalarini tayyorlashda birgalikda ishtirok etadilar;
- o’qituvchi va tarbiyachilar bolalarni bir-birlarining ichki dunyolarini tushunishga o’rgatadilar;
- har bir bolaning qobiliyati va imkoniyatini hisobga oladilar;
- har bir bolada hayotiy malaka va mustaqillikni shakllantiradilar;
- ishlarni tahlil qiladilar va baholaydilar;
- ota-onalarga amaliy yordam ko’rsatadilar;
- barcha bolalarga birdek bilim berib, tarbiyalaydilar;

Demak; ***inklyuziv ta’lim maxsus ehtiyojli, nogiron bolalar ham faqat maxsus maktablarda emas, balki sog’lom bolalar o’qiydigan umumta’lim maktablarida ham ta’lim-tarbiya olishlari mumkin ekanligini e’tirof etadi.*** Buning uchun esa maktab ham, o’qituvchi-tarbiyachilar ham inklyuziv ta’lim tizimiga tayyor bo’lishi, maktab darajasi, jismoniy sharoit va o’qishga imkon omillari shu ta’lim talablariga to’la javob berishi kerak.

Maktab darajasida integratsiyani muvaffaqiyatli kiritishga bir necha o’zaro bog’liq omillar ta’sir ko’rsatadi. Markaziy omil o’quv dasturiga kiritish imkoniyatidir. Shuningdek, binolarning jismoniy joylashuvi, o’qish uchun imkoniyat va moliyalashgan imkon ham asosiy omilllardandir.

Inklyuziv ta’limda maktabdagi jismoniy sharoit ham katta o’rin tutadi. Oddiy qilib aytadigan bo’lsak, barcha maktablar eshigiga o’quvchilar zinapoyalar orqali kirib boradilar. Lekin bu zinapoyalardan maxsus aravachalarda yuradigan nogiron bolalar ko’tarila olmaydilar, hatto qo’ltiqtayoqda yuradigan bolalar ham, qiynalishlari mumkin. Demak, zinapoyalardan ham , eshiklardan ham sog’lom bolalar bilan birga nogiron bolalar ham bemalol o’tishlari uchun qulay sharoit

yaratilishi shart. Bundan tashqari, sinf xonalari va laboratoriyalardagi maxsus o’rindiq hamda moslamalar ham nogiron bolalarga mos bo’lishi kerak.

O’qishga imkon yaratish ham juda muhimdir. Yozish qobiliyatlarida buzilish mavjud bo’lgan bolalarga tovush va tasvirni kattalashtirish etarli bo’lmaydi. Bunda o’quvchilar imo-ishora yoki Brayl xatini puxta o’rganishlari kerak.

Aqliy nuqsoni bor bolalar soddalashtirilgan yozma yoki og’zaki informatsiyani olishlari kerak. O’quv rejasini bunday differensiyalash o’qituvchilarda o’z ishlariga ijodiy yondashishni taqozo etadi. Maktab ma’muriyati buning uchun o’qituvchilarga imkon yaratib berishi kerak. Bunday ijodiy yondashuv o’quv rejasiga qattiq talab qo’yilgan joylarda birmuncha qiyinchilik tug’dirishi mumkin.

“Bolalarni qutqaring” (Buyuk Britaniya) tashkiloti, uning boshqa mamlakatlardagi tashkilotlari inklyuziv ta’limdagi asosiy to’siqlarni xalq ta’limi tizimi va maktablarga qo’yadi. Bizning fuqarolik jamiyatiga qadam qo’yayotgan davlatimizda bunday to’siqlarni o’z-o’zini boshqarishning milliy modeli bo’lgan mahallalarda hal etish mumkin. E’tiborsizlik (1), yashirish (2), mablag’ masalasi (3), sharoitga moslashmaslik (4), kambag’allik (5), sinfda o’quvchilar sonining ko’pligi (6), kamsitish (7), qaramlilik (8), kutilmagan holatlar (9) kabi to’siqlarni mahallalarda bemalol bartaraf etsa bo’ladi, yoki bu muammolarni hal etishni quyidagi jadval asosida shunday taqsimlash mumkin (sxemaga qarang).

Bir qancha davlatlar tajribasi, jumladan, Norin (Qirg’iziston) va Qo’qon shaxarlaridagi inklyuziv ta’lim loyihasining tajribasi maxsus ehtiyojli bolalarni sog’lom tengqurlari bilan birgalikda o’quv-tarbiya ishlarida har tomonlama faol ishtirok etishlari mumkinligini tasdiqladi.



1.2. Inklyuziv ta’limni joriy qilish davr talabi sifatida.

Maxsus yordamga muhtoj bo’lgan bolalar ta’lim-tarbiyasi ularni o’qish va yozishga o’rgatish muammolarini ijtimoiy hayotga moslashtirishga ko’mak berish, bu ishlarni samarali amalga oshirish, maxsus soxa xodimlari hamda nogron bolalar ota-onalariga amaliy yordam berish kabi masuliyatli ishlar jumlasiga kiradi.

Maxsus yordamga muhtoj bolalar asosiy muamolarini ular o’zlari yashab turgan muxitdan, oiladan uzoqda ta’lim tarbiya berish bilan hal qilib bo’lmaydi. Jamiyat o’z a’zolariga javobgarlikni o’z bo’yniga olmas ekan, cheklab qo’yilgan huquq va imkoniyatlar qaytarib berilmas ekan ijtimoiy integrasiyaga erishish qiyin.

Maxsus ehtiyojli bolalarni ta’lim tarbiyasida tenghuquqlilik muammosini hal etish bugungi kunning dolzarb muammolaridan biridir. Ammo bugungi kunda ham juda ko’plab bolalar turli xildagi sabablarga ko’ra ta’limdan chetda qolib ketmoqdalar. Inklyuziv ta’limga jalb qilishning tashkiliy, ilmiy-uslubiy choralarini ko’rib chiqish ya’ni mutaxassislarini tayyorlash, malakasini oshirishga oid tadbirlarni ishlab chiqish lozim. Alohida yordamga muhtoj bolalarni umumta’lim muassasalariga jalb qilishning ikki asosiy omili bor:

Birinchidan, alohida ehtiyojga ega bo’lgan bolalar ham sog’lom bolalar bilan birgalikda o’zaro faoliyat ko’rsatishlari mumkin. Inklyuziv ta’lim maqsadga muvofiq tarzda tashkil etilsa, maxsus ehtiyojli bolalar ijtimoiy tomondan himoyalanadilar, sog’lom bolalar esa ijtimoiy adolat va tenglikning tan olinishi buyukligini nogiron bolalarga nisbatan yanada mehribon va e’tibor bilan munosabatda bo’lishni his etadilar.

Ikkinchidan, nogiron bolalar ham sog’lom tengdoshlari bilan yonma-yon o’qish, tarbiyalanish huquqiga ega ekanligi.

Bu ishlarni muvaffaqiyati xar bir davlatning qonunlarida aks etilishi zarur. Chunki, qonunlar, ularni kerakli moddiy va ma’naviy resurslar bilan ta’minlanishini amalga oshirishni kafolatlaydi. Imkoniyati cheklangan bolalar-o’quvchilarga ta’lim berishda, ota-onalar, mahallalar pedagoglar, mutaxassislar

hamkorligida faoliyat ko’rsatishlarini talab qilinadi va majburiy shart hisoblanadi.

Alohida ehtiyojli bolalar ham sog’lom tengdoshlari bilan birgalikda o’z qobiliyat darajasida faoliyat ko’rsatish, ta’lim olishi, kasb-xunar o’rganishi va rivojlanishi mumkin. Inklyuziv ta’lim maqsadga muvofiq tarzda tashkil etilsa maxsus yordamga muhtoj bolalar ijtimoiy tomondan himoyalandilar, ijtimoiy hayotda teng xuquqliligini, o’z tengdoshlari bilan birga bilim olishlari mumkinligini his etadilar.

Alohida ehtiyojli bolalar uchun tashkil etilgan segregasion-maxsus, yopiq turdagi muasasalarda bolalardagi mavjud nuqsonlar ancha-muncha yuqori darajada korreksiyalansada, ammo bolalarning maktab jamoasidagi tor doiraga tushib qolishlari natijasida ijtimoiy jamiyatga moslashishi, kelajakda normal rivojlanishdagi boalalar qatori faoliyat yuritishlarida juda katta qiyinchiliklarga duch keladilar. Maxsus maktablar mana shu jihatlari bilan juda katta kamchiliklarga ega. Bundan tashqari maxsus ehtiyojli bolalarni barcha qatori keng jamoatchilik davrasidan ajratgan holda yashashlari ham demokratiya nuqtai nazariga to’g’ri kelmaydi. Chunki maxsus ehtiyojli bolalar ham barcha qatori haq-huquqlarga ega. Shuning uchun ham 1990 yilda Djonpiyeyen (Tailand)da juda muhim koferensiya o’tkazildi. Bu konferensiya “Ta’lim hamma uchun” maqsadini shakllantirishga qaratilgan bo’lib, unga 155 ta davlat vakillari va 150dan ortiq nodavlvt tashkilotlari qo’shildilar. Tahlil shuni ko’rsatadiki, taxminan 10-15% bolalar maxsus ta’limga muhtoj ekanligi aniqlandi.

Djomtiyen (Tailan)da o’tkazilgan konferensiya asosida “Ta’lim hamma uchun” shiorini qo’llab-quvvatlash va amaliyotga tadbiq qilishni tahlil etish maqsadida 1994 yilda YuNESKO tashkiloti va Ispaniya davlati bilan hamkorlikda Salamanka - Ispaniya umumjahon konferensiyasi o’tkazildi. Ushbu konferensiya ishtirokchilarining maqsadi va vazifasi butun dunyodagi imkoniyati cheklangan bolalarning umumta’lim muassasalarida ta’lim olishlari uchun qulayliklar yaratish, maktabda o’qitish vazifasini amalga oshirish

uchun maktab isloxotlarini o’tkazish zarurligi to’g’risida fikr-muloxazalar yuritishga qaratilgan edi.

Maxsus ehtiyojli bolalarni umumta’lim muassasalariga jalb etishga bo’lgan ehtiyoj bu shunda namoyon bo’ladiki, ta’lim tizimidan butunlay chetda qolib ketayotgan maxsus ehtiyojli bolalarni ta’limga jalb etish, maxsus muasasalarga borishga yashash joyi juda uzoqda bo’lganligi yoki moddiy mablag’ning yetishmasligi yoki ota-onalarning o’z farzandini maxsus muassasaga borishini hohlamasligi oqibatida qiynlalayotgan ota-onlalargan ko’mak berish, maxsus ehtiyojli bolalarni ijtimoiy jamiyatga erta va to’laqonli moslashtirish, teng huquqlilik masalasini hal etish, kamsitishlarni oldini olishdadir.

Inklyuziv ta’lim masalasi 90-yillarning diqqat markazija bo’lib qoldi. Janubiy Afrika va Janubiy Sharqiy Osiyodagi integrasiyalashgan ta’lim dasturlari asosida yakuniy ish hujjatlari o’rganilib chiqildi. Natijada barcha davlatlarning Ta’lim Vazirliklarida maxsus maktablar qoshidagi maxsus bo’limlarga muqobil sifatida inklyuziv ishlash uslublari qabul qilindi.

Inklyuziv ta’limga bo’lgan ehtiyoj uning jamiyatga va maxsus ehtiyojli bolalar uchun quyidagi nafli jihatlari mavjudligidan kelib chiqadi:

Inklyuziv ta’lim maxsus ehtiyojli bolalarga doimo o’z oilasi mahallasi va qarindosh-urug’lari davrasida bo’lishga imkon beradi.

Bolalarni oilasidan, uyidan uzoqda bo’lgan iternatlarga joylashtirish ularning uyi, oilasi hamjamiyat hayotiga ishtirok etish huquqiga to’sqinlik qiladi. Uyidan, oilasidan, ota-ona mehridan uzoqda bo’lgan bola diydasi qattiq bo’lib o’sadi. Chunki oila tarbiyaning bosh markazidir.

Inklyuziv ta’lim barcha uchun ta’lim sifatini yaxshilaydi.

Inklyuziv ta’lim ta’lim sifatini yaxshilashga olib keladigan katalizator bo’lib xizmat qilishi mumkin. Maxsus ehtiyojli bolalrni umumta’lim muassasalariga qabul qilinishi o’quvchilarni yanada bolaga qaratilgan faolroq va ko’proq o’quvchilarni qamraydigan yangi o’qitish uslublarini ishlab chiqishga undaydi. Buning nafi esa hamma bolaga tegadi.

Inklyuziv ta’lim kamsitishlarni oldini olishga yordam beradi.

Jamiyatda nogironlargan nisbatan yanglish fikr va munosabat juda yuqoridadir. Ular haqida ma’lumotlarning kamligi va ularni yoshligidan maxsus muassasalarda yopiq tarzda ta’lim tarbiya berilishi bunga sababa bo’lishi mumkin. Bunday munosabatni yo’qotish yoki kamaytirish ancha mushkul ishdir. Lekin tajribadan shu narsa ma’lumki, kattalarga nisbatan bolalar farqli va o’xshashlik jihatlarni tezroq anglar ekanlar. Agarda maxsus ehtiyojli bolalar normal rivojlanishdagi bolalar bilan birgalikda ta’lim tarbiya olsalar, bu barcha bolalarni nogironlarga nisbatan o’zlari singari bola ekanliklarni anglab, kasitmasliklarini ta’minlagan bo’lar edi.

1.3.O’zbekiston Respublikasida inklyuziv ta’lim tizimining joriy etilish masalalari.

O’zbekiston Respublikiasida nogiron bolalar bilan bog’liq tahlil va dastlabki baholash ishlari 1966 yilda boshlangan.

Hozirgi kunda O’zbekistonda 250000 ga yaqin turli ko’rinishdagi nogiron bolalar (16 yoshgacha) ta’lim olish ehtiyojiga ega. Nogiron bolalar uchun ta’lim bilan birgalikda maxsus xizmatlar tashkil etish lozim.

Ko’zi ojizlar, kar va eshitish nuqsoniga ega bo’lgan bolalar, poliyemiyelit bilan kasallanganlar, aqli zaif bolalar, nutqida nuqsoni bor va soqov bolalarga mo’ljallangan 86 ta maxsus ta’lim va aralash maxsus muassasalar, 982 ta maxsus bolalar bog’chalari mavjud.

O’zbskistonda maxsus ta’lim sohasida quyidagi tadbirlar amalga oshirilmoqda:

- yordamga muhtoj bolalar uchun moslashuvchan va ko’p qirrali ta’lim tizimini yaratish;
- mahalliy va mintaqaviy miqyosda maxsus ta’limning tobora oshib borayotgan ahamiyati asosida ta’lim boshqaruvini markazlashtirish; yordamga muhtoj bolalarga yoshlikdan toshhis qo’yish va kasalpiklarni aniqlash uchun sharoit yaratish;

- milliy ta’lim standartlari asosida yordamga muhtoj bolalarga mo’ljallangon o’quv qo’llanmalar sifatini yaxshilash;

ta’pim muassasalarining moddiy-texnika bozasini mustahkamlash;

- nogiron bolalar bilan ishlashga ixtisoslashgan xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik aloqalarini kengaytirish;

- ko’zi ojiz bolalar uchun mo’ljallangan turli kitoblar, metodologik adabiyotlarni chop ztish;

- nogiron bolalarni maxsus aravachalar, eshitish moslamalari, ko’zoynaklar, sport anjomlari,ish asbob-uskunalari, kanselyariya mollari, maxsus mebellar va tibbiy uskunalar bilan ta’minlash;

- maxsus talim sohasida kadrlar tayyorlash.

Hozirgi kunda qator ekologiq ijtimoiy va boshqa sabablarga ko’ra, shuningdeq homiladorlikdan keyingi patologik asoratlar natijasida bola rivojlanishi va birinchi navbatda, uning ongi, atrof-muhit tahlili holda faoliyatini nazorat qilish va boshqarish funksiyalarining rivojlanish masalasini o’rganish muhimdir.

Ota-onalar qishloq sharoitida yordamga muhtoj bolalariga talab darajasida yordam ko’rsatish imkoniyatiga ega emas. Birinchidan, moddiy tomondan imkoniyat cheklanganligi, ikkinchi tomondan esa, yordamga muhtoj bolalarning go’dakligidan ulorning nuqsonlarini aniqlash uchun o’qituvchi va psixologlarning malakasi talab darajasida emas.

Tarbiyachilar, psixologlar, o’qituvchilarning maxsus defektologiyaga asoslangan o’quv dasturlarda olgan bilim va malakalari ularning maxsus guruhlordagi faoliyatlari davamida aniq tashhis qo’yish va sifatli davalashni amalga oshirish imkoniyatini yaratadi.

Inklyuziv ta’limning asosiy maqsadi — yordamga muhtoj bo’lgan bolalarga samarali bilim olish uchun sharoit yaratishdir.

Ushbu sharoitda yordamga muhtoj bolalarni integrasiyalash va reabilitasiya qilish, har bir bolaning rivojlanish darajasini hisobga olgan holda ularga mos samarali inklyuziv talim turini tanlash lozim.

1996 yilning noyabr oyida YuNESKO ishlari bo'yicha O'zbekiston Milliy komissiyasi tashabbusi asosida Toshkentda «Maxsus ta'lim sohasida inklyuziv usullar» movzusida milliy o'quv dastur muvaffaqiyatli amalga oshirilgan. 1998 yilning oktyabr oyida Buxoro shahrida ushbu mavzu bo'yicha mintaqaviy anjuman tashkil etilgan edi. Mazkur anjuman YuNESKO, YuNISEF (BMTning bolalar jamg'armasi), Butunjahon sog'liqni saqlash tashkiloti va Xalqaro mehnat tashkiloti bilan hamkorlikda amalga oshirilgan. Ushbu tadbirlar notijosida 2001 yilda O'zbekiston Xolq ta'limi vazirligi qoshida Inklyuziv ta'lim bo'yicha manba markazi tashkil etildi. Hozirgi kunga qadar ushbu markaz tomonidan bir necha o'quv seminarlari o'tkazildi va qator dasturlar amalga oshirib kelinmoqda.

2004 yilning iyun oyida «Sen yolg'iz emassan» respublika jamoatchilik bolalar jamg'armasi tashabbusi asosida Toshkent shahrida «Yetim bolalarning ijtimoiy muhofozasi» mavzusida ilk bor xalqaro anjuman tashkil etildi. Ushbu anjuman doirasida nogiron bolalar uchun talim dasturlari ham muhokama etildi.

2005 yilning may oyida Toshkent shahrida Respublika bolalar mjtimoiy moslashuvi markazi va «Sen yolg'iz emassan» respublika jomoatchilik bolalar jamg'armasi tomonidan «Ijtimoiy nochor bo'lgan bolalarga ko'mak berishning samarali shakl va usullari» nomli xalqaro forum o'tkazilgan edi. Ushbu forum tavsiyanomalari asosida YuNESKO ishlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy komissiyasi O'zbekiston Xalq ta'limi vazirligi bilan hamkorlikda YuNESKO tashkiloti rahnamoligida Osiyo va Tinch okeani mintaqasidagi madaniy markaziga (Tokio, Yaponiya) maxsus loyiqa taqdim etilgan edi. Ushbu YuNESKO markazi tomonidan «O'zbekistonda inklyuziv ta'limni joriy etish bo'yicha bog'cha va o'rta maktablarda tajribaviy guruhlar ochish» nomli loyiha qo'llab-quvvatlandi va yaqin kunlarda amalga oshirilishi rejalashtirilmoqda.

Loyihaning asosiy maqsadi nogiron bolalarda turfa xil malakalarni oshirish va ularning qobiliyatlorini barqaror rivojlantirish uchun sharoit yaratishdan iborat.

Ta'lim tibbiy va ijtimoiy xizmat bilan birgalikda olib boriladi. Oila va maqallada ota-onalar uchun profilaktika hamda reabilitasiya ishlari bo'yicha o'quv mashg'ulotlari tashkil etiladi. Ota-onalar nogiron bolalarini tarbiyalash va ularning

aqliy rivojlanishlarini rag’batlantirish bo’yicha pedagogik usullar, shuningdeq ularning mustaqil bo’lishlari uchun tengdosh sog’lom bolalar bilan muloqot qilishlari bo’yicha o’qitiladilar.

Loyiha to’qqiz bosqichdan iborat bo’lib, har bir bosqich quyidagi faoliyatlarni qamrab oladi:

1 -bosqich: Respublika ta’lim markazi qoshidagi Maxsus talim bo’yicha manba markazida ko’chma ta’lim guruhi tashkil etiladi. Ko’chma ta’lim guruhiga texnik yordam ko’rsotish.

2-bosqich: «Barqaror toraqqiyot uchun inklyuziv ta’lim» mavzusida milliy anjuman tashkil etish.

3-bosqich: Xalq ta’limi vazirligining viloyat boshqormalori bilan hamkorlikda nuqson bilan rivojlanoyotgan bolalarni aniqlash bo’yicha tibbiy-psixologik-pedogogik komissiyani toshkil etish. Qo’shma guruh va sinflarda o’qitish moqsadida nuqson dorajosi me’yordon og’ishgon (3-7 yoshdagi) bolalarni aniqlash.

4-bosqich: Uslubiy tavsiyanomalar, qo’llanmalar va dasturlarni nashr qilish.

5-bosqich: Pedagog-tarbiyachilar, o’qituvchilar, psixologlarning qo’shma guruhlari va sinflarda bolalardagi nuqsonlarni tuzatish va rivojlantirishga yo’naltirilgan dasturlarini ishlab chiqish bo’yicha o’quv mashg’ulotlarini tashkil etish.

6-bosqich: Mavjud bolalar ta’limi muassasalarida, 2 ta bog’cha va 2 ta o’rta maktabda maxsus tajribaviy guruh tashkil etish, Texnik yordam ko’rsatish.

7-bosqich: Maktabgacha inklyuziv ta’lim Ixtisoslashgan ishlab chiqilgan tajribalarni targ’ib qilish bo’yicha ilmiy-uslubiy, amaliy-mintaqaviy anjumanni tashkil etish.

8-bosqich: Monitoring va baholash.

9-bosqich: Moliyaviy hisobot.

Loyiha yordamga muhtoj bolalar, ularning ota-onalari, bog’cha pedagog-tarbiyachilariga qaratilgan.

Loyiha Respublika ta’lim markazi qoshidagi Inklyuziv ta’lim bo’yicha manba markazi tomonidan Toshkent Davlat pedagogika universitetining Boshlang’ich ta’lim va defektologiya fakulteti, YuNESKOning O’zbekistondagi vakolatxonasi va YuNESKO ishlari bo’yicha O’zbekiston Milliy komissiyasi, shuningdeq boshqa mutasaddi tashkilotlar bilan hamkorlikda amalga oshiriladi. Loyiha bir yil muddatga mo’ljallangan.

Inklyuziv ta’lim bo’yicha manba markazi 2001 yilda O’zbekiston Xalq talimi vazirligi huzuridagi Respublika ta’lim markazida tashkil etilgan.

Tashkilotning asosiyfaoliyati quyidagilardan iborat:

- nogiron bolalar ta’limi sohasida faoliyat ko’rsatuvchi o’qituvchi va tarbiyachilar uchun turli anjuman va o’quv mashg’ulotlarini tashkil etish orqali O’zbekiston Respublikasi ta’lim tizimiga inklyuziv ta’limni tatbiq etish;

- nogiron bolalar uchun o’quv darsliklarini yaratish;

- nogiron bolalar uchun tajribaviy maydonlar barpo etish;

- bola uchun alohida rivojlantirish rejasini yaratish;

- pedagoglar va ota~onalarga maslahat xizmatini ko’rsatish;

- uslubiy qo’llanmalar, tavsiyanomalar, maxsus maktablarda nogiron bolalar bilan ishlash rejasini yaratish;

- yuridik faoliyat va ijtimoiy muhofaza bo’yicha ma’lumot bilan ta’minlash;

- nogiron bolalar ta’limi sohasida faoliyat yurituvchi jamoat va davlat tashkilotlari bilan hamkorlik qilish;

- nogiron bolalar ta’limi sohasida mavjud kamchiliklarni ommaviy axborot vasitalarida yoritib borish;

- xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik qilish; maxsus ta’lim sohasidagi tajribalarni tatbiq etish.

Ta’lim sohasida yordamga muhtoj bolalarning tahsil olishlari hamisha jamiyatning diqqat markazida turgan dolzarb masala hisoblanadi. Shunday ekan, ularga ta’lim beruvchi pedagoglar va mutaxassislor malakasini oshirish, zarur zamonaviy qo’llanmalar, jihozlar bilan ta’minlash ham bu masalani hal qilish uchun qo’yilgan qadamlardan biri hisoblanadi.

BMT tomonidan 1989 yilda qabul qilingan «Bola huquqlari to'g'risidagi»gi Konvensiyasi hamma bolalarni, shu qatori maxsus ehtiyojli bolalar huquqlarini ham himoya qiladi va qo'llab-quvvatlaydi. Aynan 2, 23, 28, 29 - moddalarda maxsus ehtiyojli bolalari huquqlari belgilangan.

Bolalar huquqlari To'g'risidagi Konvensiyaning 2-moddasi maxsus yordamga muhtoj bolalar uchun asosiy modda hisoblanadi. Unda mazkur Konvensiyadagi har bir modda irqi, dini, millati, etnik yoki ijtimoiy kelib chiqishidan qat'iy nazar barcha bolalaga tegishliligi haqida ta'kidlanib, "Barcha huquqlar har bir bola uchun tegishli. Kamsitish yoki jazolashning barcha shakllaridan bolaning himoyasini ta'minlash uchun zarur choralarni ko'rish ishtirokchi davlatlar majburiyatlariga kiradi" deb bayon qilingan.

Shuningdeq Bolalar huquqlari to'g'risidagi Konvensiyaning 23-bandida maxsus ehtiyojli bolalarning ta'limi xususida quyidagicha ta'kidlangan "Nogiron bolani maxsus ehtiyojlarini aniqlab, uni ijtimoiy hayotga qo'shishi va shaxs sifatida rivojlana olishiga yetaklovchi vasita hisoblanadigan ta'lim olishga har tomonlama yordam berishi lozim. Ishtirokchi davlatlar aqliy va jismoniy jihatdan yaxshi rivojlanmagan bola o'zining qadr-qimmatini ta'minlaydigan, o'ziga ishonch tug'diradigan va uning jamiyat hayotidagi faol ishtirokini yengillashtiradigan sharoitlarda yashashlarini ta'minlaydilar".

Maxsus ehtiyojli bolalrni umumta'lim muassasalari tizimida o'qitish ularning haq-huqularni ta'minlaydi. Shuning uchun Bolalar huquqlari to'g'risidagi Konvensiya maxsus ehtiyojli bolalarni huquqlarni ta'minlaydigan asosiy huquqiy me'yoriy hujjatdir.

Salamanka bayonoti va ish faoliyati rejasi inklyuziv ta'lim bo'yicha halqaro miqiyosidagi hujjatdir. Ushbu hujjat 1994 yilda YuNESKOning maxsus ehtiyojli shaxslar ta'limini tashkil etishga qaratilgan "Ta'lim hamma uchun" g'oyasini rag'batlantirishga yo'naltirlgan Salamankada tashkil etilgan Konferensiyada inklyuziv ta'lim konsepsiyasini rivojlanishi uchun zarur bo'lgan siyosiy, tashkiliy, huquqiy, uslubiy o'zgarishlar ko'rib chiqildi. Shu asosda ta'lim tizimi va mazmuni tubdan qayta ko'rib chiqildi va alohida

ehtiyojli bolalarni umumta’lim tizimida ta’lim olishi uchun zarur bo’lgan huquqiy me’yoriy asoslari yaratildi.

Ushbu harakat rejasining asosiy tamoyilliri jumlasiga quyidagilar kiradi: “Maktablar jismoniy aqliy, ijtimoiy, emosional, tilidagi va boshqa nuqsonlaridan qat’iy nazar hamma bolalarni qabul qilishi shart...” (Salamanka Bayonoti, 3-band)

Salamanka Konferensiyasida inklyuziv ta’limni rivojlanishi uchun zarur bo’lgan siyosatdagi o’zgarishlar ko’rib chiqildi, hamda qatnashchilar umumta’lim maktablarini maxsus ehtiyojli bolalrga moslashtirish usullarni ishla chiqdilar. Unda ikkita yo’nalish belgilab olindi:

- Maorif tizimi va ta’lim dasturlari turli xususiya va ehtiyojlarni hisobga olgan holda tuzilib shu ishga yo’naltirilsin;
- Maxsus ehtiyojga ega bo’lgan bolalar uchun oddiy maktablarga borish imkoniyati yaratilsin.

2000 yilning 26-28 aprel kunlari Dakar-Senegalda o’tkazilgan Xalqaro forumda “Ta’lim hamma uchun” milliy harakat reja - dasturini bajarish maqsadida keng qamrovli ishlarni hamkorlikda va halqaro miqyosida olib borilishi lozimligi hamda barcha rivojlangan mamlakatlar 2015 yilga qadar hamma uchun teng majburiy ta’limga o’tishlari ta’kidlangan. Bu muammo bo’yicha tajribalarni o’rganish va tashabbusni qo’llab-quvvatlash YuNESKO va YuNISEF tashkiloti tomonidan amalga oshirilmoqda.

Nogironlarni umumta’lim tizimida o’qitish masalalariga e’tibor berish Respublikamizda 1996 yilda O’zbekiston Respublikasi Xalq Ta’limi Vazirligi, Respublika ta’lim markazi va YuNESKO tashkiloti bilan hamkorlikda respublika seminari o’tkazilishi bilan islohotlar amalga oshirila boshladi. Shu davrdan boshlab olimlar, maxsus ta’lim tizimidagi rahbar xodimlari, pedagoglar, umumta’lim mussasalarining rahbarlari va nodavlat jamoa tashkilotlarining nogironlar ta’limi ehtiyojini qondirishga qaratilgan munosabatlari o’zgara boshladi.

Respublika Ta’lim Markazining maxsus ta’lim bo’limi hodimlari imkoniyati cheklangan bolalarni integrasiyalashgan ta’lim jarayonida ta’lim olish

strategiyasini keng joriy qilish maqsadida YuNESKO tashkiloti bilan 1996 yildan buyon hamkorlik qilib kelmoqda. O'zbekistonda integrasiyalashgan inklyuziv ta'lim tizimini amaliyotga tadbiq qilish maqsadida YuNESKO xalqaro tashkiloti loyihasi asosida bir necha Respublika seminar-treninglari va xalqaro konferensiyalar o'tkazishga muyassar bo'lindi. Konferensiyalarda ko'tarilgan dolzarb muammolar, masalalar, tavsiyalar va ishtirokchilarning ma'ruzalari xalqaro to'plamda chop etildi va ommaga tarqatildi. Hozirgi kunda Respublikamizda inklyuziv ta'lim konsepsiyasini joriy qilishda asosiy dasturamal bo'lib kelmoqda.

1998 yilda YuNESKO tashabbusi bilan Buxoro shahrida yirik Konferensiya o'tkazildi. Konferensiyaning maqsadi alohida yordamga muhtoj bolalarni ijtimoiy qo'llash, reabilitasiya qilish, ta'limga jalb qilish, moddiy, texnikaviy yordamlarni tashkil qilish va ularni to'laqonli jamiyatga moslashtirishga oid turli tashkiliy uslubiy ishlarni amalga oshirishda Markaziy Osiyoda ko'p tarmoqli aloqalar o'rnatish edi.

Ushbu Konferensida BMT, YuNISEF, VAZ tashkilotlarining ekspertlari shuningdeq Rossiya, Qozog'iston, Tojikiston, Turkmaniston, Qirg'iziston Respublikasi hamda O'zbekiston Respublikasidagi turli xil davlat va nodavlat tashkilotlar, ma'muriy organlarning mutasaddi xodimlari ishtirok etdilar. Imkoniyati cheklangan bolalarni ijtimoiy qo'llash va barcha qatori teng huquqli sharoitda ta'lim olishi va biron bir bola ta'limdan chetda qolmasligiga jiddiy muhokama etildi va rezolyusiyalar qabul qilindi. Ushbu halqaro konferensiyada O'zbekiston Republikasi XTV va uning tasarrufidagi turli ma'muriy tashkilot vakillari ham ishtirok etib, o'z tajribalari bilan fikr almashdilar va respublikada ushbu muammoni hal qilish masalalari bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqildi. Shu bois O'zbekistonda alohida yordamga muhtoj bolalarni to'laqonli maxsus ta'limga jalb qilish va integrasiya usulida ta'lim olish 2001-2002 yillarda birmuncha faollashdi. Bunga asos Xalq ta'limi vazirligi, Respublika ta'lim markazi, YuNESKO, YuNISEF, "Opereyshen Mersi", "Mersi projekt" nodavlat xalqaro tashkilotlar va O'zbekistonda faoliyat

ko’rsatuvchi milliy tashkilotlar, jumladan “UMR”, “Ziyo”, “Imkon”, “Hayot”, “Umidvarlik”, “Yorug’lik”, “Muruvvat”(Samarqand), “Mezon”, “Mehrigiyo”, “ShANS”, “Nihol”, “Korreksion pedagogik Reabilitasiya markazi” kabilar bilan hamkorlikdagi loyihalar bo’yicha amalga oshirib kelingan ishlar, chora – tadbirlardir.

2000 yil O’zbekistonda inklyuziv ta’limning ilk asosi sifatida Respublika ta’lim markazi maxsus ta’lim bo’limi tomonidan “O’zbekiston respublikasida alohida yordamga muhtoj bolalar ochiq ta’lim tizimining rivojlantirish chora-tadbir rejasi” ishlab chiqildi. Bu reja dasturda alohida yordamga muhtoj bolalarni umumta’lim tizimga kiritishning quyidagi tashkiliy asoslari yoritib berildi:

ommaviy axborot orqali jamiyat ongini inklyuziv ta’limga tayyorlash;

Respublikadagi alohida yordamga muhtoj bo’lgan bolalar haqida axborot banki yaratish;

-barcha turdagi nuqsonli bolalar uchun umumta’lim va yakka tartibda oilalarda o’qitilishi bo’yicha turli xil o’quv metodik adabiyotlar, didaktik vasitalar ishlab chiqish va ta’minlash masalalari qayd qilingan.

Ayniqsa, 2001 yil 21-23 noyabr kunlari Toshkent shahrida o’tkazilgan “Alohida yordamga muhtoj bolalarni ma’naviy va estetik tarbiyalash” mavzusidagi xalqaro konferensiyada turli xorijiy mamlakatlar, Qozog’iston, Rossiya, SNG davlatlariing ekepertlari qatnashib, o’z fikr - muloxazalari bilan o’rtoqlashadilar. Konferensiyada qatnashgan shaxar va viloyat xalq ta’limi boshqarma vakillari, aholini ijtimoiy muxofaza qilish, sog’liqni saqlash vazirliklari, mutaxassislar, Oliy ta’lim professor o’qituvchilari, malaka oshirish institutlari xodimlari, nodavlat jamoat tashkilotlari, nogiron bolalari bo’lgan ota-onalar, matbuot va axborot vasitalari xodimlari, jurnalistlar qatnashib, hozirgi kunda vujudga kelayotgan muammolar ustida to’xtalib, bahs-munozara yuritdilar. Bu konferensiyada imkoniyati cheklangan bolalarning qobiliyatlari, mehnat natijalari, san’at, sportda erishgan yutuqlari va mahoratlari namoyish etildi. Uning tahlili shuni ko’rsatdiki alohida yordamga muhtoj bolalarni

inklyuziv ta’lim tizimida ta’lim olishi ularni rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko’rsatishi yana bir bor ekspertlar tomonidan qayd etildi.

Inklyuziv ta’lim konsepsiyasini O’zbekistonda joriy qilish va undagi muammolarni hal qilish maqsadida turli xil chora-tadbirlar uyushtirish, matbuot-axborot vasitalari orqali targ’ibot-tashviqot ishlari bir muncha faollashdi.

Respublika ta’lim markazi YuNESKO tashkiloti bilan hamkorlikda 2001 yilda “Inklyuziv ta’lim” mavzusida seminar o’tkazib, uning tavsiyalariga asosan Respublika Ta’lim Markazi maxsus ta’lim bo’limi qoshida “Inklyuziv ta’lim resurs markazi” tashkil etildi. “Inklyuziv ta’lim resurs markazi”ning vazifalari quyidagilardan iborat qilib belgilandi:

-ta’limga jalb etilmagan imkoniyati cheklangan bolalar ta’limini tashkil etishga ko’maklashish;

-inklyuziv sinf va guruhlarni o’quv metodik majmualar bilan ta’minlash;

-joylardagi resurs markazlarga amaliy-uslubiy yordam ko’rsatish;

-imkoniyati cheklangan bolalarning ota-onalariga farzandlarini tarbiyalash, maktabga va ijtimoiy hayotga tayyorlashga oid turli shakldagi tadbirlarni tashkil etish, maslahatlar berish;

-imkoniyati cheklangan bolalar va o’smirlarga ta’lim berish, kasb-hunarga o’rgatish ishlarini amalga oshirish maqsadida umumta’lim muassasalarida inklyuziv sinflar va guruhlar tashkil etish, ta’limni integrasiya asosida olib borish kabilar.

2002 yilning 31 may kuni “Ta’lim hamma uchun Dakar Deklorasiyasi”ning mohiyatini O’zbekistonda tadbiq etish yuzasidan Xalq Ta’limi Vazirligi, YuNESKO xalqaro tashkiloti bilan hamkorlikda “Ta’lim hamma uchun” mavzusida halqaro forum tashkil etildi. Forumda xalqaro YuNESKO tashkilotining eksperti janob Kotibxon ishtirok etib forum qatinashchilariga “Ta’lim hamma uchun” Milliy dastur rejasini ishlab chiqish mavzusida seminar tashkil etdi.

Natijada 2003 yil “Ta’lim hamma uchun” dasturining Milliy rejasi ishlab chiqildi. “Ta’lim hamma uchun” dasturining Milliy rejasi 2000 yilgi Dakar shartnomalari doirasida ishlab chiqilgan bo’lib, siyosatchilar, ta’lim tizimi, vazirlik va idoralar rahbarlari, pedagoglar, jamoat arboblari, O’zbekiston Respublikasi uzluksiz ta’lim tizimini rivojlantirish muammolari bilan qiziquvchi barcha shaxslar uchun mo’ljallangan. “Ta’lim hamma uchun” Milliy harakat rejasini ro’yobga chiqarish bo’yicha yaqin davrlar (2001-2015- yillar)ga mo’ljallangan tadbirlar belgilanib, u Ta’lim hamma uchun milliy harakati hamda umumiy o’rta ta’lim maqsad va vazifalarini ro’yobga chiqarish siyosati” deb nom olgan VI bandining IX yo’nalishi Maxsus ta’limga yo’naltirilgan bo’lib, unda maxsus ehtiyojli bolalarni umumta’lim muassasalariga jalb etishda qonunchilik va me’yoriy bazani takomillashtarish, maktabgacha va boshlang’ich ta’lim-tarbiya, maxsus ta’lim mazmunini, inklyuziv ta’lim jarayonining o’quv-uslubiy tomonini takomillashtirish, pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish, inklyuziv ta’limning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, inklyuziv ta’limni joriy etishda targ’ibot-tashviqot ishlarini olib borish va boshqa masalalar qayd etilgan.

Bu ishlarni yanada rivojlantirish maqsadida 2003 yilda Inklyuziv ta’lim bo’yicha o’tkazilgan respublika seminarida xorijiy davlatlar ekspertlari, mutaxassislar, olimlar, Xalq ta’limi vazirligi, joylardigi viloyat Xalq ta’limi boshqarmalari va bo’limlarining ta’limga mas’ul vakillari, Tashxis markaz raxbarlari, umumiy va maxsus ta’lim pedagog raxbarlari, jamoat tashkilotlar vakillari va boshqalar ishtirok etdilar.

Seminarga YuNESKOning eksperti Vakayto Unversiteti professori Devid Mitchel (Yangi Zellandiya) kordinatorlik qilgan. Devid Mitchel “Inklyuziv ta’limning tashkil etishning asl, mohiyati, umumta’lim tizimida alohida sinflar yoki guruhlar tashkil etish bilan chegaralanib qolmay balki ularni me’yorida rivojlangan bolalar kabi ta’lim olishlari uchun barcha shart-sharoitlarni yaratishdir”. Shuningdek inklyuziv ta’limni amaliyotga joriy etishda xalqaro ish tajribalari bilan fikr almashdi.

2005 yilning 19 sentyabr kuni XTVning 234-sonli buyrug'i bilan «Imkoniyati cheklangan bolalalar va o'smirlar uchun inklyuziv ta'lim to'g'risida muvaqqat Nizom»i tasdiqlandi. Ushbu Nizomda inklyuziv ta'lim tizimining maqsad, vazifalari belgilab berilgan. Unda qayd qilinishicha, imkoniyati cheklangan bolalar va o'smirlar quyidagi tartibda inklyuziv ta'limga qamrab olinadi:

-ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar;

-harakat muvozanati buzilgan;

- o'z-o'ziga xizmat qila oladigan debillik darajasidagi oligofren bolalar va o'smirlar;

-nutqida nuqsoni bo'lgan (muloqoti cheklanmaydigan darajadagi) bolalar;

-zaif ko'ruvchi bolalar va o'smirlar;

-zaif eshituvchi va kech (5 yoshdan keyin)kar bo'lgan bolalar;

-ko'zi ojiz (Brayl yozuvi va o'qishni egallagan) bolalar va o'smirlar;

-kar (muloqot darajasida nutqi bo'lgan, o'qish va yozishna egallagan) bolalar va o'smirlar.

«Imkoniyati cheklangan bolalar va o'smirlar uchun inklyuziv ta'lim to'g'risida muvaqqat Nizom»ning 4-bandida inklyuziv ta'lim tizimida o'quv tarbiya jarayonini tashkil etishning quyidagi masalalari qayd etilgan:

4.1.Inklyuziv ta'limni tashkil etilgan barcha umumta'lim maktablarida imkoniyati cheklangan bolalar va o'smirlarga nisbatan do'stona munosabat ruhi shakllanadi.

4.2. Inklyuziv ta'lim amalga oshirilayotgan umumta'lim maktablarida Davtlat Ta'lim standartlariga ilova sifatida imkoniyati cheklangan bolalar va o'smirlar uchun korreksion dastrlar ham inobatga olinadi, maxsus korreksion ishlarni amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratiladi (maxsus jixozlangan korreksiya xonasi, maxsus infrastruktura).

4.3. Inklyuziv ta'lim amalga oshirilayotgan umumta'lim maktablarida tayorlov guruh va birinchi sinflarida 35 daqiqa boshqa sinflarad 45 daqiqadan darslar olib boriladi;

4.4. Imkoniyati cheklangan bolalar va o’smirlarning bilimlari ularning shaxsiy xususiyatlari va qobiliyatlariga asoslangan holda belgilangan tartibda baholanadi.

4.5. Ta’lim jarayonida zamonaviy umumdidaktik tamoyillar bilan bir qatorda maxsus tamoyillar ham e’tiborga olinadi.

4.6. Korreksion ta’lim o’quvchilarning ehtiyojlariga ko’ra tabaqalashtirilga holda tashkil etiladi.

4.7.Inklyuziv ta’lim amalga oshirilayotgan umumta’lim maktabiga o’quvchilar ota-onalarning arizasi hamda “Tibbiy-psixologo-pedagogik komissiya”lari xulosalari asosida qabul qilinadi va ta’lim muasasalari rahbarlarining buyrug’i bilan tasdiqlanadi.

4.8.Inklyuziv ta’lim amalga oshirilayotgan umumta’lim maktabidagi sinflarida integrasiya qilingan o’quvchilar soni 4 nafardan oshirilmaydi hamda o’quvchilar umumiy soni 25 nafargacha belgilanadi.

Shuningdeq mazkur Nizomda inklyuziv ta’lim ishtirokchilari, inklyuziv ta’lim mutaxassislarining ota-onalar yoki boshqa qonuniy vakillar bilan hamkorligi, xalqaro hamkorlikda qatnashish xususiyatlari batafsil bayon etilgan.

“Imkoniyati cheklangan bolalar va o’smrlar uchun nklyuziv ta’lim muvaqqt Nizom” asosida Respublikamizda inklyuziv ta’lim tizimining quyidagi huquqiy-ijtimoiy asoslari yaratildi:

-bolani ijtimoiy hayotga tayyorlashda yoshi, jinsi irqi, millatidan qat’iy nazar O’zbekiston Konstitusiyasining moddasiga asosan barcha bolalar umumta’lim jarayoniga kiritish va ijtimoiy hayotga moslashtirish lozimligi belgilangan;

-har bir bola o’zining qiziqishi qobiliyati, va ehtiyojiga ko’ra mos ravishda bilim olishi huquqiga ega;

-ta’lim dasturini ishlab chiqishda va amalga oshirishda o’ziga xoslik va ehtiyojlarning turli-tumanligini nazarda tutish;

-har bir bola tengdoshlar qatori bilim olish huquqiga ega bo’lishi;

-bolani ta’limga emas, balki ta’limni bolani ehtiyojiga ko’ra tashkil etilishi;

-bolan muhtojligi va imkoniyatini e’tiborga olgan holda ta’lim metodologiyasini, o’quv rejalarni ixcham bo’lishini qo’llab-quvvatlash hamda baholash;

-inklyuziv ta’lim muammoni bolada emas, tizimda ekanligini aniqlaydi, bolaga qulay shart-sharoit yaratishni ta’minlaydi;

-bolani shaxsiy ehtiyojiga qarab korreksion-pedagogik va ijtimoiy yordamni tashkil qiladi va hokazo.

Yuqorida keltirilgan inklyuziv ta’limnig huquqiy asoslarga tayangan holda bu ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, uni amaliyotga joriy etishni jadallashtirish maqsadida 2005 yilning 14-15 dekabr kunlari Toshkent shahrida “Ta’lim hamma uchun” Milliy dasturini joriy qilish bosqichlari” mavzusida yirik xalqaro Konferensiya o’tkizildi. Ushbu konferensiyada xalqaro tashkilotlarning O’zbekistondagi vakolatxonalarining vakilliri ham o’z ma’ruzalari bilan ishtirok etdilar. YuNISEF tashkiloti vakili Reza Xosseyn, YuNESKO tashkiloti vakili Bari Layn, “Mersi Projekt” , “Opereyshn Mersi”, Kosta Rika davlatlari xalqaro vakillari shular jumlasidandir.

“Ta’lim hamma uchun” Milliy dasturini joriy qilish bosqichlari” mavzusidagi xalqaro ilmiy amaliy konferensiyada quyidagi vazifalar hal etildi:

-“Ta’lim hamma uchun” umummilliy dasturining mohiyatini targ’ibot qilish;

-Respublikada imkoniyati cheklangan bolalar inklyuziv ta’limini tashkil etish bo’yicha me’yoriy metodik hujjatlarni ishlab chiqish;

-imkoniyati cheklangan bolalarni erta tashxis qilishning zamonaviy uslublarni muhokama qilish;

-psixologo-tibbiy-pedagogik komissiya, Tashxis markazlari, psixologik xizmat faoliyati samaradorligini oshirish;

-sog’liqni saqlash, mehnat va ijtimoiy muxofaza vazarligi tashkilotlarining imkoniyati cheklangan bolalarni aniqlash hisobga olish, davalash, ijtimoiy himoyalash borasidagi faoliyatini jonlantirish;

-imkoniyati cheklangan bolalarga ta’lim berish, ularni ijtimoiy himoyalash borasidagi davlat va nodavlat tashkilotlarning hamkorligini kuchaytirish;

-inklyuziv ta’lim jarayonida uchraydigan to’siqlarni bartaraf etish yo’llari bilan tanishtirish .

Konferensida nafaqat Respublikamizning soha vakillari, balki qardosh Qozog’iston, Qirg’iziston, Rossiya davlatlar vakillari ham ishtirok etib, o’z davlatlarida inklyuziv ta’lim tizimi modayellari, bu sohada qo’lga kiritilgan yutuqlar bilan konferensiya ishtirokchilarini tanishtirishga muvaffaq bo’ldilar.

“Ta’lim hamma uchun” milliy harakat reja dasturini amalga oshirish bo’yicha erishilgan yutuqlar va muammolar konferensiya kun tartibida quyidagi mavzular bo’yicha guruhlarda ishtirokchilar tomonidan muhokama etildi:

-“Nuqsonlarni ilk tashxis qilish va korreksion pedagogik yordam ko’rsatish-alohida yordamga muhtoj bolalar integrasiyasining muhim omili sifatida”.

-“O’zbekistonda alohida yordamga muhtoj bolalar integrasiyasining milliy modeli”

-“Imkoniyati cheklangan bolalar oilalarining ijtimoiy reabilitasiyasi” va shu kabi.

Bugungi kunga qadar Respublikamizda o’tkizilgan seminar treninglarda 500dan ortiq ishtirokchilar inklyuziv ta’lim tizimining mazmun mohiyati, uni joriy qilish bosqichlari xususida mukammal ma’lumotlarga ega bo’ldilar.

Imkoniyati cheklangan bolalarni inklyuziv ta’lim tizimida ta’lim olishini yanada takomillashtirish, amaliyotda uchraydigan muammolarning yechimlarini davlat va nodavlat tashkilotlar hamkorligida hal qilish masalalari yuzasidan quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi:

-korreksion ta’lim strukturasini sifat jihatdan yangilash;

-respublikaning ijtimoiy iqtisodiy rivojlanishini hisobga olgan holda bosqichma-bosqich to’liq integrasiyasiga amal qilish;

-davlat normativ hujjatlariga inklyuziv ta’limni joriy etish bo’yicha qo’shimchalar kiritish yoki tadbirlar ishlab chiqish va tasdiqlash;

-binoni ularga mos ravishda rekonstruksiya qilish;

-umumta’lim tizimida ta’lim olayotgan maxsus ehtiyojli bolalar uchun zaruriy moddiy texnik ba’zani yaratish;

-inklyuziv ta’limni tashabbuskorliq mehr-muruvvat tarzida tashkil etish;

-maktabning ish faoliyatiga inklyuziv ta’limni amalga oshirish borasida o’zgarishlar kiritish;

-umumta’lim muassasa pedagoglarini inklyuziv ta’lim bo’yicha qayta tayyorlash;

-barcha pedagogika oliygohlarida va o’rta maxsus o’quv yurtlarida korreksion pedagogik kurslarni kiritilishi;

- korreksion Davlat ta’lim talablari va dasturlarni imkoniyati cheklangan bolaning imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda moslashtirishirilgan, ishlab chiqish;

-umumta’lim, maxsus maktab pedagoglari, ota-onalar uchun o’quv metodik va ilmiy ommabop, ixcham turdagi o’quv adabiyotlar va individual dasturlar yaratish;

-nogiron bolani ilk yoshidan tashxis qilish va korreksion pedagogik yordam berish;

-imkoniyati cheklangan bolalarni umumta’lim tizimida umumiy va korreksion ta’lim olishini ilmiy asoslari, standart talablar, o’quv metodik majmualarni yaratish va ta’minlash;

-kasb-hunarga o’rgatish, reabilitasiya qilish va bu ishda oilani bevosita ishtirokini ta’minlash kabi bir qator dolzarb masalalarni kelajakda keng qamrovli bajarish uchun davlat tasarrufida muvofiqlashtiruvchi ilmiy-pedagogik resurs markazi, boshqarma, ilmiy labaratoriyalar tashkil qilish kabi tashkiliy, ilmiy-uslubiy, amaliy ishlarni bajarish inklyuziv ta’limni joriy qilish muvaffaqiyatini ta’minlaydi.

II-BOB. INKLYUZIV TA’LIM TAMOYILLARI VA ULARNING MAZMUNI.

2.1. Inklyuziv ta’limning asosiy tamoyillari.

Ta’lim tizimini joriy etish har doim ma’lum bir qonun qoidalarga, tamoyillarga asoslanishni talab etadi. Inklyuziv ta’lim tizimini joriy qilishda esa quyidagi tamoyillarga asoslaniladi:

1). Inklyuziv ta’limning e’tirof etilishi.

2). Inklyuziv ta’limning barcha uchun ochiq bo’lishi tamoyili.

3). Bog’lanishning mavjud bo’lishi tamoyili.

4). Markazlashtirilmagan bo’lishi tamoyili.

5). Inklyuziv ta’limda kompleks yondashishi tamoyili.

6). Inklyuziv ta’limda moslashuvchanlik tamoyili.

7). Malakaviylik tamoyili.

Inklyuziv ta’limning e’tirof etilishi tamoyili.

Bu tamoyilning mazmuni shundaki, 1990 yildan buyon maxsus ehtiyojli bolalrni umumta’lim muassasalari tizimida o’qitish borasida bir qancha jahon miqiyosida deklorasiyalar va qarorlar qabul qilindi. Ularni jahonning ko’plab davlatlari e’tirof etdilar. Ammo bugungi kunga qadar ularni hayotga joriy qilish borasida ko’plab muammolar mavjud. Ba’zi davlatlarda esa umumiy ta’lim borasida qonun yoki qarorlar qabul qilinganda nogiron bolalarning ta’lim masalasi unga kiritilmaydi. Ammo inklyuziv ta’limni tan olish faqatgina qonun chiqarish bilangina bog’liq bo’lmaydi. Diskriminasiya (odamlarni ajratish) va ijtimoiy noto’g’ri fikrlashga qarshi kurashish eng muhim narsadir. Ya’ni inklyuziv ta’limni e’tirof etgan holda, aholi o’rtasida targ’ibat-tashviqot ishlarini olib borish eng birinchi galdagi masaladir.

Inklyuziv ta’limning barcha uchun ochiq bo’lishi tamoyili.

O’tgan yigirma yil davamida maxsus ehtiyojli bolalrni umumta’lim muassasalari tizimida o’qitish borasida sezilarli ishlar amalga oshirildi. Ammo inklyuziv ta’limi tizimini joriy qilish asosan shaharlar miqiyosida bo’lib qishloqlardagi hududlarda hali-hamon maxsus ehtiyojli bolalar ta’limdan chetda

qolib ketmoqda yoki qishloqlardagi ota-onalar nogiron farzandini shaharlardagi maxsus muassasalarga qatnashlarini ta’minlash uchun qiyinchiliklarga duch kelmoqdalar. Shuning uchun ham maxsus ehtiyojli bolalarni inklyuziv ta’limga jalb etish barcha hududlarda barcha maxsus ehtiyojli bolalarni qamrab olgan bo’lishi ta’minlanishi lozim.

Bog’lanishning mavjud bo’lishi tamoyili.

“Bog’lanish”-bu so’zning zaminida-ommaviy binolarning sifati, ayniqsa nogiron bolalar uchun maktablarga kirishning oson bo’lishi kabilar yotadi. Bola maktab binosiga (zinapoyalar aravachada yurishga moslashtirilmaganligi sababli) kira olmaganmi yoki maktab xojatxonasi aravachada harakatlanuvchilarga moslashtirilmaganligi uchun oddiy maktabdan chiqarib tashlamasligi kerak. Bu kabi qulayliklarni yaratish unchalik katta mablag’ talab qilmaydi. Yangi maktab binosi nogiron bolalarning ehtiyojlarini e’tiborga olgan holda rejalashtirilgan paytdan boshlab qurilishi kerak. Alatta nogiron bolalar uchun yaxshi bo’lgan qulayliklar normal rivojlanishdagi bolalar uchun hyech bir muammo keltirib chiqarmaydi. Jismonan bog’lanishlarni yaratish inklyuziv ta’limning asosiy muammolarini hal etishga xizmat qiladi.

Markazlashtirilmagan bo’lishi tamoyili.

Bu tamoilning mazmuni quyidagi ikkita aspekt yordamida ifodalanadi:

A). Inaklyuziv ta’lim xizmatlari umumiy ta’lim tizimining integrasiya qilingan qismi bo’lishi kerak.

B). Inklyuziv ta’lim tizimidgi vazifalar mahalliy ta’lim organlariga jaqvabgarlik va boshqaruvni yuklash uchun markazlashmagan holda olib borilishi kerak va imkoniyatlar mahalliy sharoitlarga moslashtirilishi lozim.

Optimal integrasiya erishish uchun markazlashtirilmagan bo’lish muhimdir. Bu ayniqsa qishloq sharoitlarida ayni muddao bo’ladi. Inklyuziv ta’limning vazifalari nogiron bolalarga o’z ota-onalari baln birga bo’lish, ularga xuddi tengdoshlari kabi o’zlariga yaqin bo’lgan maktablarda ta’lim olish imkonini beradi. Bu ularning shaxsiy sifatilarining shakllanishida muhim ahamiyatga ega. Nogiron

bolaning normal rivojlanishiga halaqil berish, nogironlikdan ham og'irroq holatlarga olib kelishi mumkin.

Inklyuziv ta'limda kompleks yondashishi tamoyili.

Nogiron bolalarga ularga nogiron deb faqatgina nuqson jihatdan yondashishi emas, balki bu bolalrga har tomonlama yondashish lozim. Bu esa maxus ehtiyojli bolalar uchun ta'lim masalasini rejalashtirayotgan uning butun hayoti davomida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan ehtiyojini hisobga olgan holda tuzishni talab etadi. Bundan tashqari inklyuziv ta'limda nogiron boladagi mavjud nuqonlarni bartaraf etish, korreksiyalash, kompensasiya qilish bilan bir qatorda bilim ko'nikmalarga ega qilish, kasb hunarga o'rgatish ishlarini parallel ravishda olib borish talab etiladi. Bu tamoyilning mohiyatida maxsus ehtiyojli bolalarga ilk yosh davrida erta yondashish ham yotadi. Maxsus ehtiyojli bolalar ta'limi boshlang'ich va o'rta-maxsus ta'limni olishlari blan yakunlanmasligi kerak. Nogiron bolalarning kasb-hunar ta'limi va oliy ta'limi ham amalga oshirilishi taalab etadi. Chunki inklyuziv ta'lim tizimining vazifalaridan biri maxsus ehtiyojli bolalrni har tomonlama rivojlantirish, ularning barcha huquqlarini ta'minlashdan iboratdir.

Inklyuziv ta'limda moslashuvchanlik tamoyili.

Bu tamoyilning mazmuni shundaki, o'quv reja, dastur va darsiliklar maxsus ehtiyojli bolalarning imkoniyatlariga moslashuvchan bo'lishi kerak. Bolaning maxsus ta'limga bo'lgan ehtiyojlari har qanday integrasiya faoliyatining asosini tashkil etishi kerak. Shaxs ehtiyojlarining darajalari va turlari har xil bo'lganligi tufayli bunday faoliyatlar moslashuvchan o'zgaruvchan bo'lishi talab etiladi.

Malakaviylik tamoyili.

Maxsus ehtiyojli bolalar inklyuziv tarzda o'qitilayotgan sinflarda yuqori malakali o'qituvchilarning dars berishi talab etiladi. Bundan tashqari inklyuziv sinf o'qituvchisi defektlogiya sohasi bo'yicha ham malaka oshirgan bo'lishi kerak.

1). Izlab topish va jalb qilish bosqichi.

Nogiron odamlarning hayoti asosan yakkalab qo'yishlar bilan bog'liq. Ko'plab davlatlarda nogiron odamlarga past nazar bilan qaralib, ular hamjamiyatdan chetlashtirilmoqda. Buning oqibatida nogiron bolalarning ta'lim

olish imkoniyatlari yanada chegaralanib qolmoqda. Millatning etnopsixologik xususiyatlaridan biri bo'lmish nogiron farzandini boshfalardan bekitish hollari esa nogiron bolalar kelajak hayoti uchun juda fojeali holatdir. Mana shunday salbiy oqibatlarni oldini olish maqsadida aholi o'rtasida targ'ibo-tashviqot ishlarini olib borish lozim. Oilaga, ya'ni asosan ota-onalarga nogiron bola ham maktab ta'lim-tarbiyasini olishi shart ekanligini to'g'ri tushintirib bera olish kerak. Shunday usullar bilan ta'limdan chetda qolib ketgan nogiron bolalarni izlab topish imkoni yaratiladi. Ro'yxatga olingan bolalar o'z yaqin arofidagi umumta'lim maktablariga jalb etiladi.

2). Maxsus ehtiyojli bolalar bilan shug'illanish bosqichi. Bu bosqichda umumta'lim muassasalari tizimiga kiritilgan maxsus ehtiyojli bolalar bilan olib boriladigan o'quv-tarbiyaviy, korreksion-rivojlantiruvchi vazifalar rejasi tuzib chiqiladi.

3). Reabilitasiya bosqichi. Bu bosqichda bolalarning nogironligi tufayli bajara olmaydigan faoliyatlarini bajarish qobiliyatlari va ularning imkoniyatlari darajasini kengaytirish ishlari amalga oshiriladi. Shu sababali bu bosqichda nogiron odamlar nafaqat ta'lim tarbiya, balki ularning ishlab chiqarish faoliyatlarini oshiruvchi treninglar ham olib boriladi. Ular "obyekt" emas, balki "subyekt" vazifasini o'taydi. Natijada nogiron bolalarning nima qila olmasligi emas, balki ular nimalar qilisha qodir ekanligi diqqat markazda turadi.

4).Intergasiya bosqichi. Bu bosqich inklyuziv tarzida o'qitilgan, reabilitasiya jarayoni malga oshirilgan nogirn bolalarni ijtimoiy jamiyatga to'la kiritish bosqichidir. Integrasiya bosqichida nogiron bolalar to'laligicha ijtimoiy jamiyatga kiritiladi. Ya'ni bu bosqichda nogiron bolalarning ham o'zlarining teng imkoniyatlari va huquqlaridan foydalangan holda kasb va ishlash joyini mustaqil tanlash imkoniyati beriladi.

Maxsus ehtiyojli bolalarni umumta'lim sharoitida o'qitish ularni o'ziga xos xususiyatlari, nuqson turi, darajasi va sinfdagi bolalar sonini e'tiborga olgan holda tashkil qilinadi. Avvalo shuni ta'kidlash joizki, o'quvchilarning yoshlari bir xil bo'lsada, lekin ular bir birlariga o'xshamaydilar. Barcha

bolalarning individual psixologik shaxs xususiyatlari, qabul qilish darajasi, zehn va idroki turlichadir. Shu bois maxsus ehtiyojga ega bo'lgan bola ta'lim olayotgan inklyuziv sinflardagi o'quv tarbiya jarayonini tashkil etish masalasi yanada murakkabroq muammolarni hal etishni talab etadi. Inklyuziv sinfda o'qituvchi bolalarning ikoniyatini e'tiborga olib, darslarni shunga muvofiq rejalashtira olsa, bolalarning nogironligi bilim olishiga qanday ta'sir qilishini bilib, bu qiyinchiliklarni bartaraf etishning uslubiy yo'llaridan foydalansa, maktab va oila hamkorligini to'la yo'lga qo'ya olsa hamda nogiron bolaning kelajagiga ishonch bilan qarasagina dars jarayoni muvaffaqiyatli kechishiga erishish mumkin. Har bir bola o'z imkoniyat darajasida rivojlanadi, buni L.S. Vigotskiyning ilmiy qarashlariga ko'ra **"Har qanday ruhiy yoki jismoniy nuqsonda ham taraqqiyot davom etadi"** fikri bilan ham tasdiqlash mumkin .

Inklyuziv ta'limga yangicha fikrlarning talqin etilishi milliy, tashkiliy va uslubiy islohotlarni talab etadi. Maxsus ta'limga muhtoj bolalar hozirgi maktab tizimida ehtiyojlari qondirilmayotgan bolalardir. Shu sababdan maktablar barcha bolalarning turli xildagi va umumiy maqsadlari, intilishlari, qiziqishlariga javob berishi va ularning bilim olishlarini ta'minlashi lozim.

Inklyuziv ta'limni rivojlantirish uchun umumiy ta'lim tizimiga tarkibiy o'zgartirishlar kiritish muhimdir. "Umum ta'lim" va "maxsus ta'lim" o'rtasidagi to'siqlar olib tashlanishi kerak. Maxsus ta'lim oddiy ta'limning bir qismi bo'lishiga qaramasdan, o'zining o'quvchilari, o'qituvchilari, boshqaruv jamoasi va ta'minot tizimidan tashkil topgan ikkita ta'lim tizimi amalda qo'llanilib kelinmoqda. Barcha o'quvchilarning talablariga javob beruvchi "Inklyuziv maktab"da bunday tizimga ehtiyoj qolmaydi.

Islohotlar ta'lim maqsadlarining amaliyotini boshqarish mumkin, lekin ularning pedagogik amaliyotini to'g'ridan-to'g'ri boshqara olmaydi. Shu sababdan samarali bo'lishi uchun islohotlar yaxshi muhokama qilinishi va ta'lim tizimi boshqaruvchilar hamda uni amalda qo'llovchilar tomonidan ko'rib chiqilishi kerak.

Inklyuziv ta’lim quyidagi shart-sharoitlarda tashkil etilishi mumkin: ommaviy maktabgacha tarbiya muassasalari, umumiy o’rta ta’lim maktab sinflari (guguhlari)da umumiy va alohida yordam olish, logoped xonalarida korreksion pedagogik yordam olish, korreksion sinf (guruh)larda maxsus ta’lim olish shaklida.

Inklyuziv ta’lim tizimiga maxsus yordamga muhtoj bolalarni viloyat (shahar, tuman) halq ta’limi bo’limlari tomonidan tibbiy-psixologo-pedagogik komisiya faoliyatida “Respublika, viloyat, tuman tibbiy- psixologo-pedagogik komissiyalar to’g’risida”gi Nizom asosida qabul qilinadi.

Umumta’lim tizimida inklyuziv ta’limni joriy qilishda muassasa hodimlarini ish vazifalarida ham ko’zga ko’rinarli darajada islohotlar amalga oshirishi kerak.

Maxsus ehtiyojli bolalarni umumta’lim tizimida o’qitish o’qituvchilardan ikki karra ma’suliyat bilan ishlashni talab etadi. Shuning uchun ham oliy pedagogik ma’lumotli va malaka oshirish kurslarini o’tab inklyuziv ta’lim pedagogik kvalifikasiyasni olgan o’qituvchilargina inklyuziv sinf o’qituvchisi etib tayinlanishi mumkin. Inklyuziv sinf o’qituvchisi umumiy o’rta ta’lim mussasa Ustavida belgilangan vazifalar bilan bir qatorda

-tarbiyalanuvchilarning jismoniy va ruhiy rivojlanishini korreksiyalash va me’yorga keltirish ishlarini olib boradi;

-bolalarni faolligini, ta’lim samaradorligini oshiruvchi metodlarni qo’llaydi;

-diqqat-e’tibor, xotirani, kuzatuvchanliq sinchikovlik va boshqa qobiliyatlarni tarbiyalaydi;

-o’z-o’zini nazorat qilish malakalarini, bolalarning bilishga doir qiziqishlarini va qobiliyatini rivojlantiradi.

Inklyuziv ta’lim jarayonida muassasa tarbiyachisi ham alohida o’rin egallaydi.

Tarbiyachi ish faoliyatini tashkil etishda o’qituvchi-defektologlar, ota-onalar va boshqa mutaxassislar bilan hamkorlikda sog’lom va alohida

ehtiyojli bolalar bilan olib boriladigan mashg'ulotlarni rejalashtirishi hamda shu asosida olib borishi kerak. Shuningdeq tarbiyachi alohida ehtiyojli bolani oilada tarbiyalash masalasida ota-onalarga va qonuniy vakillarga metodik yordam ko'rsatadi, kerakli ish hujjatlarini yuritadi.

Inklyuziv ta'lim joriy qilingan muassasada albatta psixolog faoliyat yuritishi lozim.

Psixologning faoliyati har bir bolaning ruhiy salomatligini himoyalash, ruhiy rivojlanishidagi kamchilklarini bartaraf etish va korreksiyalashga qaratiladi. Muassasa psixologi har bir bolani psixologik jihatdan tekshiradi, doimiy ravishda psixologo-pedagogik jihatdan o'rganib boradi, individual rivojlantirish dasturlarini tuzadi, alohida ehtiyojli bolani oilada tarbiyalash bo'yicha ota-onalarga maslahatlar beradi, inklyuziv ta'lim muassasasining pedagogik hodimlariga psixologik rivojlantirish masalalarida metodik yordam ko'rsatadi.

Inklyuziv ta'lim muassasasida ta'lim-tarbiya olayotgan maxsus yordamga muhtoj bolalarning ayrimlari doimiy ravishda tibbiy xizmatga muhtoj bo'lishi mumkin. Inklyuziv ta'lim muassasasi shifokor-pediatri (psixonevrolog) har bir bolaning ruhiy asab holatini doimiy ravishda tekshirib boradi, zarurat bo'lganda davalash muolajalarini tavsiya etadi, korreksion pedagogik ta'lim jarayonida bolalar sog'lig'ini nazorat qiladi, aqliy va jismoniy yuklamaning me'yorini belgilaydi, ota-onalarga bolaning somatik hamda ruhiy salomatligini saqlash yuzasidan maslahatlar beradi.

Shunday qilib, inklyuziv ta'lim muassasasida ta'lim - tarbiya jarayoni har tomonlama amalga oshirilgan islohotlar asosidagina samarali kechadi.

2.2. Inklyuziv ta'lim maqsad va vazifalarini oshirishda resurs o'qituvchining o'rni va roli.

Maxsus ehtiyojli bolalarni umumta'lim sharoitida o'qitish maktablararo qatnab yuruvchi o'qituvchi ya'ni, resurs o'qituvchi faoliyatini talab etadi. Inklyuziv ta'lim amaliyotda maktablararo qatnab yuruvchi o'qituvchi va oddiy

sinf o’qituvchisining hamjihatlikdagi harakatlari orqali amalga oshirilishi mumkin.

Ba’zi sinflarda bolani ma’lum bir vaqtga sinfdan ajratib olish kerak bo’lishi mumkin. Hamma vaqt nima bo’lsada resurs o’qituvchi sinf o’qituvchisi bilan birgalikda faoliyat ko’rsatishi va bu maxsus ta’lim sohasida mutaxassislikka ega bo’lishi talab qilinadi.

Maktablararo qatnab yuruvchi resurs o’qituvchining muhim vazifalariga nogiron bolalar uchun kerak bo’lgan qo’llanmalar, jihozlar bilan ta’minlash, homiylar topish, ota-onalarni maktabga yordam berishga jalb qilish va imkoniyati cheklangan bolalar, sog’lom bolalar hamda sinf o’qituvchisi o’rtasidagi mustahkam aloqani o’rnatish, masus resurs qo’llanmalarni ta’minlash orqali yordam berish, ota-onalar, bolalar oddiy sinf o’qituvchilari va maktab ma’muriyatiga maslahatlar berish, shuningdeq maxsus ta’limga muhtoj bolalar uchun faoliyatlar va ularga mos keluvchi ta’lim dasturlari haqida muhokamalar yuritish, hattoki nogiron bo’lmagan bolalarning ota-onalariga ham ma’lumotlar yetkazilib turish kiradi. Resurs o’qituvchining asosiy maqsadi: umumta’lim muassasalarida ta’lim olayotgan maxsus ta’limga muhtoj o’quvchilar va ularning o’qituvchilariga yordam ko’rsatishdaniborat. Resurs o’qituvchi quyidagi vazifalarni amalga oshiradi:.

har bir o’quvchini qaysi darajadagi yordamga muhtojligini aniqlash va ularning ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda muntazam ravishda ular bilan uchrashish.

o’quvchilar bilan yakka tartbda ishlash, individual rejalardan kelib chiqqan holda ularni kuzatish, o’quv dasturiga moslashishiga yordam berish, o’qitish va baholash.

sinf o’qituvchilariga o’quvchilarning maxsus ehtiyojlari va qobiliyatlariga oid ma’lumotlarni berish.

sinf o’qituvchilarini individual o’quv rejalari bilan tanishtirish va ular bo’yicha maslahatlar berish.

muntazam ravishda o’quvchilarning erishayotgan muvaffaqiyotlarini muhokama qilish va baholash.

maktab jamoasining boshqaruv xodimlari va ota-onalar bilan hamkorlikda ishlash;

zarurat tug’ilsa, o’quvchilarni boshqa yordam ko’rsatuvchi uyushmalarga taklif etish (masalan, seminarlarga, shifokorlarga).

- o’kituvchilar hamda o’kuvchilar bilan individual ravishda olib boriladigan faoliyatlarni qayd etib borish.

- standart o’quv reja talablariga javob bermaydigan vaziyatlarda har bir o’quvchiga individual o’quv reja tuzishga ko’maklashish;

- O’zgaruvchan ehtiyojlardan kelib chiqqan holda individual o’quv rejalarni yangilash va baholash.

- mavjud barcha resurslar (o’quv adabiyotlar, o’qitish qurilmalari va boshqa asboblarni hujjatlashtirish va ular ro’yxatini tuzish.

Maktablararo qatnab yuruvchi resurs o’qituvchi o’z vazifa va maqsadlaridan kelib chiqqan holda ish rejasini o’z tuzishda quyidagilarni hisobga olishi kerak:

Maktablararo qatnab yuruvchi resurs o’qituvchilarning maxsus ta’lim olishga bo’lgan talablariga javob beradigan yordamlarni ko’rsatish;

Sinf o’qituvchisi bilan birgalikda individual dasturlarni yaratish va uni baholash;

O’qituvchilar muhtoj bo’lgan xizmatlarni amalga oshirish;.

Bolaning o’qituvchisi yoki maktabi almashganda u haqidagi ma’lumotlarni yetkazib berishni boshqarish;

Yangi kelgan o’qituvchilarning ehtiyojlarini anglash va qondirish;

Maxsus ta’limga muhtoj bo’lgan oddiy sinflarga o’qituvchilarning moslashishiga yordam berish;.

Agar kerak bo’lsa sinfdan tashqarida individual va guruhlarga asoslangan ko’rsatmalarni berish;

Individual dasturlarni muvaqqiyatli bo’lishini boshqarish;

Maxsus ta’limga muhtoj bolalarni maktabning jismoniy muhitiga jalb etishda ularning shu muhitga moslashishiga yordam beruvchi maktab boshqaruvi;

Maxsus yordamchi vasitalar va qo’llanmalarga bo’lgan talabni o’rganish va ulardan foydalanishni boshqarish;

Inklyuziv ta’limni rivojlantirishni qo’llab – quvvatlashdan iborat.

Maktablararo qatnab yuruvchi resurs o’qituvchi faoliyat yuritmasligi, ko’p vaqtini yo’lda samarasiz sarflamasligi juda muhimdir.

Resurs o’qituvchi nogiron bolalarning darslaridagi qiyinchiliklarni va ehtiyojlarini muhokama qiladi. Vaqti-vaqti bilan u joylarda olib borilayotgan o’qituvchilar treningida nogironlik muammosi bo’yicha maslahat va ko’rsatmalar berib boradi. Masalan, nogiron bolaning nuqson xususiyatlarini, darajalarini aniqlash, individual psixologik xususiyatlarini o’rganish bo’yicha metodik tavsiyalar berish kabi.

Ta’lim olishda kiyinchiligi bo’lgan bolalarni imkoniyatini ta’lim siyosatida e’tiborga olish juda muhim. Ta’lim siyosati inklyuziv ta’limni rivojlantirish maqsadida moliyaviy ta’minotga e’tibor karatish zarur: maxsus ta’lim va umumta’lim maktablari urtasidagi tusiklarni bartaraf etish chora–tadbirlari; statistik ma’lumotlar buyicha nogironlarni inklyuziv maktablarda ta’lim olishni joriy qilish; maxsus infra–strukturalar, masalalar, texnik vasitalardan foydalanishga imkoniyat yaratish ham ta’lim siyosatining ajralmas kismidir.

Inklyuziv ta’lim jamoaviy ish bo’lib, javobgarlik butun maktab jamoasi bo’yniga yuklatiladi. Bunda sinf rahbari yordam ko’rsatuvchi bo’lib asosiy rol o’ynaydi. Ta’lim siyosati uni tartibga soladi. Bu kabi yordamlar turli xil shakllarda bo’lib, ular quyidagilarni o’z ichiga oladi:

-sinf o’qituvchisiga maslahat va yordam berish;

-maxsus o’qitish qo’llanmalari va yordamchi materiallar bilan ta’minlash:

-ota-onalar, ko’ngillilar yoki katta o’qituvchilar tomonidan mavjud bo’lgan yordamlarni ta’minlash;

-o’quv reja, dars jadvali, baholash mezolariga moslashtirish va o’zgarishlarga ko’niktirish masalalarini shakllantirish;

-o’qituvchilar malakalar va bilimlarini oshirish uchun sharoit yaratish;

-faol qo’llab-quvvatlovchi rahbar va shu kabilarni o’z ichiga olgan ijobiy maktab muhitini tashkil etish va ta’lim jarayonida do’stona munosabatni shakllantirish;

-ma’muriyatga bolalarni aniqlash va baholashda yordam kursatish;

-ijtimoiy, psixologik va sog’liqni saqlash xizmatlarini muvofiqlashtirish kabi ishlarni amalga oshirishdan iborat.

Ushbu ta’lim tizimida bolalarni nuqsonlarini aniqlash ularni muolaja-reabilitasiya qilish, korreksion-pedagogik omillarni amalga oshirish bo’yicha tegishli mutaxassislar (maxsus resurs pedagoglar, psixologlar, tibbiyot xodimlari, ota-onalar va boshqalar) muntazam ravishda maktab pedagoglariga bevasita yordam berishlari kerak.

Inklyuziv ta’lim nogironlarning ijtimoiy tengdoshlari bilan bir qatorda ta’lim olishini ta’minlaydi, (agarda ularning rivojlanishida jiddiy sabablar bo’lmasa) muntazam maktablarga qabul qilishini nazarda tutadi.

O’ta murakkab nuqsonli bolalar ayrim hollarda maxsus maktablar va maxsus reabilitasiya markazlari yoki muntazam maktablar qoshidagi maxsus sinflarda korreksion dasturlar yordamida ta’lim oladilar. Ushbu maktablarda ta’lim ta’minoti albatta bolaning zaruriyatni e’tiborga olgan holda amalga oshirish ko’zda tutiladi.

Muntazam ta’lim jarayoni imkoniyati cheklangan bolaning shaxsiy xususiyatlariga ko’ra yakka tartibda korreksion metod va moslashtirilgan o’quv reja, dasturlar va boshqa omillardan foydalanib, atrofdagi jamoatchilik bilan birgalikda o’qitishning turli shakllarini tashkil qilish hamda maxsus yordamchiapparatlar, (eshitish apparatlari, linza, lupa, nogironlar aravachalari) turli xil texnik vasitalar va maxsus ko’rgazmali qurollarni qo’llash asosida amalga oshirishni nazarda tutadi. O’z navbatida maxsus ta’lim muassasalari pedagoglari joylarda umumta’lim o’quvchilari, ota-onalar, davlat va nodavlat jamoa

tashkilotlari uchun maslahat bo'limlari va resurs markazlar bo'lib faoliyat ko'rsatish kerak.

Alohida yordamga muhtoj bolalarni ayrimlarini umumta'lim muassasalarida o'qitish uchun davlat tomonidan quyidagi shart-sharoitlarni yaratish lozim:

-nogironlikni erta tashxic qilish;

-mutaxassislar tayyorlash;

-umumta'lim muassasalari binolarini qurishda nogironlar uchun moslashtirilgan barcha shart-sharoitlar (inshoatlar)ni yaratish;

-korreksion yordamni amalga oshirish uchun reabilitasiya markazi tarmog'ini ko'paytirish;

-ayrim nogiron bolalarni umumta'lim sharoitida o'qitishni tashkil etish maqsadida umumta'lim pedagoglarini malakasini oshirish, qayta tayyorlash kurslaridan o'tkazish va ularni maxsus yordamchi vasitalar, o'quv metodik adabiyotlar, uslubiy qo'llanmalar bilan ta'minlash, shuningdek maktabda turli dasturlar yordamida ta'limni tashkil etish;

-barcha bolalar uchun ta'lim sharoitini yaratish va ta'lim samaradorligini oshirish;

Inklyuziv ta'lim asosan umumta'lim maktablarining oddiy sinflarida va o'quvchilar yashash joyiga yaqin bo'lgan umumta'lim maktablarida olib boriladi, ta'limning rasmiy va norasmiy turlarini tashkil etishning ilg'or ish tajribalarini rivojlantiradi.

Inklyuziv ta'limga jalb etish global muammolardan biri xisoblanadi. Inklyuziv ta'limning asosiy qismi–bolalarga bilim olish uchun do'stona munosabat va o'qishga imkon beruvchi muhitni yaratishdir. Maxsus ehtiyojli bolalarning hayotga ilk yoshdan ya'ni 6 yoshgacha e'tibor berilsa, ancha yuqori samaralarga erishish mumkin. Imkoniyati cheklangan bolalarni ta'lim–tarbiyaga bo'lgan ehtiyojlarni qondirishga mos bo'lgan siyosatni ishlab chiqish inklyuziv ta'limni qo'llab–quvvatlashning asosidir.

Inklyuziv ta'limni qo'llab-quvvatlashda quyidagi masalalarni hal etish lozim:

- Jamyatda ijobiy munosabatni ishlab chiqish

Jamiyatda insonlar orasida nogiron bolalar haqida bilimlarning yetishmasligi oqibatida maxsus ehtiyojli bolalar ta’limdan chetda qolib ketmoqdalar. Bundan tashqari nogiron bolaning qobiliyatlari, huquqlari va ehtiyojlari muntazam ravishda qadrlanmasa, bolalarda o’ziga va qobiliyatlariga nisbatan salbiy munosabat shakllanib boradi.

- Inklyuziv ta’lim muhitini rivojlantirish.

Inklyuziv ta’limning asosiy qismi-bolalarga bilim olish uchun do’stona munosabat va o’qishga imkon beruvchi muhitni yaratish lozim. Bolalar maktabga bexatar, qiyinchiliklarsiz yetib borish imkoniga ega bo’lishlari lozim. Bundan tashqari, amaldagi umumta’lim uslubiyatiga bolani moslashtirishdan ko’ra, dars jadvalini sharoitni, uslubiyatni va o’quv qurollarini o’zgartirish kerak bo’ladi. Bunday o’zgartirishlar nafaqat maxsus ehtiyojli bolalar. Balki normal rivojlanishdagi bolalar uchun ham ta’lim sifatini yaxshilaydi.

- Ilk yoshdan aralashuv.

Qisqa qilib aytganda bolaning hayotiga ertaroq, e’tibor berilsa, natijasi bolaning keyingi rivojlanishida samarali ta’sir ko’rsatadi.

- Ijobiy namuna bo’la oladigan insonlar obrazini yaratish.

Bolada o’ziga ishonch va o’zini qadrlash hissini rivojlantirishda kattalarning qiyofasi juda muhim. Lekin juda ko’p maxsus ehtiyojli bolalar o’sib, ulhayayotgan bir paytda o’zlariga o’xshagan maxsus ehtiyojli katta odamlarning uchratmaydilar va katta bo’lish qandayligini tasavvur ham qila olmaydilar. Shuning uchun ham maxsus ehtiyojli kattalar maxsus ehtiyojli bolalarning at’limida doimiy ishtirok etishlari kerak. Chunki katta yoshdagi maxsus ehtiyojli insonlar ota-onalargan farzandiga ta’lim berish muhimligini tushintirish mumkin. Buning uchun esa maxsus ehtiyojli kattalarni maktablarga taklif etish kerak. Shunda ular o’zlarining hayotda erishgan yutuqlari haqida gapirib beradilar. Buning natijasida inklyuziv ta’limni targ’ib qilishda katta imkoniyat yaratiladi.

- Mos siyosatni ishlab chiqishga ko’maklashish.

Inklyuziv ta’lim tizimini qo’llab –quvvatlashda siyosat asosiy rol o’ynaydi. Siyosat tomonidan inklyuziv ta’limning qo’llab quvvatlanishi bu ta’lim tiziminig samarasini va rivajini ta’minlaydi.

2.3. Umum ta’lim maktablari tizimida nuqsonli o’quvchilarning inklyuziv ta’limini tashkil etishning maqsad va vazifalari.

Inklyuziv ta’limning asosiy maqsadi ta’limni boshlash imkoniyatiga ega bo’lgan barcha bolalar, shu jumladan alohida yordamga muhtoj bo’lgan bolalarni umumta’lim jarayoniga qamrab olishdir. Inklyuziv ta’lim alohida yordamga muhtoj bolalarga ta’lim olishni taqdimetishi bilan katta ahamiyatga ega. Bu ana shunday bolalarni uzluksiz umumiy ta’lim tizimiga kiritishni bildiradi. Ushbu jarayon o’zining quyidagi huquqiy, ijtimoiy asoslariga ega bo’lmog’i zarur. Ya’ni:

- Har bir bola ta’lim olish uchun asosiy huquqga ega va kerakli darajada bilim olish imkoniyatiga ega bo’lishi kerak.
- Har bir bola o’z xosliklariga, qiziqishlariga, qobiliyat va o’quv ehtiyojga ega.
- Ta’lim yuzasidan alohida ehtiyojga ega bo’lgan ommaviy maktablarda o’qish imkoniyatiga ega bo’lishlari, bu yerda ularning ehtiyojlarini qondirish maqsadga yo’naltirilgan pedagogik metodlar asosida sharoit yaratish zarur.
- Barcha yoshdagi bolalar atrofida yashayotgan va ishlayotgan bolalar bilan bir xil sharoitda o’qishlari va kamol topishlari zarur.
- Inklyuziv sinflar o’quvchilar va pedagoglarga jamiyatga va maktabga yangicha qarashni rivojlantirish orqali jamiyatning eng yaxshi a’zolari bo’lishlari uchun yordam berishga yo’naltirilishi zarur.
- Inklyuziv ta’lim umumta’lim maktablari o’quvchilari, direktorlari, ota-onalar va maxsus pedagoglarni bitta guruhda hamkorlik qilishlarini talab qiladi. Ko’p hollarda alohida yordamga muhtoj bolalarning ota-onalari o’z bolalarining ta’limga oid huquqlari va boshqa imkoniyatlari haqida noto’g’ri tushunchaga ega bo’lganlari natijasida bu bolalarga to’g’ri ta’lim berishni talab qilmaydilar.

Ota-onalar o’z bolalaridagi nuqsonlar tufayli uyalish va o’zini yo’qotib qo’yish kabi to’siqlarni engishlari haqida ma’lumotga ega bo’lishlari kerak. Hamma ota-onalarga inklyuziv ta’limning mazmuni nimalardan iboratligi va bu bolalarga qanday imkoniyatlar berishi haqida batafsil ma’lumot berilishi zarur.

Ota-onalarning o’z bolalariga ta’limli yordam ko’rsatishini cheklamaslik bilan bir jihatdan kengaytirish zarur. Shunday yo’l bilan ota-onalar bolalarni o’quv muassasalariga joylashtirish va o’quv dasturlarini aniqlik, shuningdek o’quv jarayonini uyda yoki boshqa joyda davom ettirishga oid muhokamalarga jalb qilishi zarur.

Har qanday bola kamol topib sog’lom o’ssa, uning bilim faoliyati, sezgi qobiliyatlari mukammal rivojlanib borsa, bunday bolalar 6-7 yoshdan boshlab maktabga qabul qilinishga tayyor bo’ladi.

Lekin umumta’lim maktab o’quvchilari orasida o’quv dasturlarini o’zlashtirishda qiyinchilikni boshdan kechirayotgan bolalar uchrab turadi. Bolaning hoh ona qornida, hoh tug’ilgandan keyin rivojlanib borishi uchun zarur bo’lgan ma’lum shartlarning bo’lishi natijasida jismoniy va ruhiy, aqliy nuqsonlar kamchiliklarga olib kelishi mumkin. Bunday bolalarda eshitishda, ko’rish qobiliyatida, nutqiy va aqliy faoliyatida nuqsonlar paydo bo’ladi.

Hozirgi vaqtda bunday bolalarni o’z sog’lom tengqurlari qatorida umumta’lim maktablarida o’qishni inklyuziv ta’limi yo’lga qo’yilmoqda. Umumta’lim maktablaridagi nuqsonli o’quvchilarning inklyuziv ta’limini tashkil qilishda o’qituvchilar nimalarga e’tibor berishlari lozim. Quyidagi ayrim nuqsonli o’quvchilarni umumta’lim maktablarida nimalarga e’tibor berishi haqida to’xtalib o’tmoqchimiz.

I. Eshitishi zaif bolalarni etarli savod olishlari uchun o’qituvchilar oldida quyidagi vazifalar turadi:

- Qulog’i yaxshi eshitmaydigan bolalarni nutqida, ruhiyatidagi o’zgarishlarni o’z vaqtida bilish lozim.

- Bolaning eshitish qobiliyati darajasini bilish maqsadida zarur bo’lsa davolash uchun mutaxassis ottolorengolog oldiga yuborish lozim.

- Eng muhimi sinfda qulog’i uncha yaxshi eshitmaydigan bola borligini hamisha esda tutish va bunday bolalarni 1-partaga o’tqazib qo’yish kerak.

- O’qituvchi sinf o’quvchilarigamavzuni tushuntirayotganda, diktant matnini o’qiyotganda o’quvchini mavzuni qanchalik fahmlaganini ko’rishi lozim.

- Qulog’i yaxshi eshitmaydigan bolalarning ishini baholayotganda, xatolar sifatini tahlil qilganda, qulog’i yaxshi eshitmasligi tufayli xatoga yo’l qo’ygan bo’lsa, bahoni pasaytirmaslik lozim.

- O’qituvchi bolaning ota-onasiga bolaning o’qishda uchraydigan qiyinchiliklarining xususiyatlarini tushuntirish, o’quvchiga uy topshiriqlarini tayyorlashda qay tariqa to’g’ri yordam ko’rsatishi kerakligini o’qitish.

II. Nutqida kamchiligi bor o’quvchilar bilan ishlashda.

o’qituvchi quyidagilarga e’tibor berishi zarur:

- O’qituvchi noto’g’ri talaffuz qiladigan o’quvchilarga alohida e’tibor qilish, hamda logoped mutaxassislaridan maslahat olishlari kerak.

- Bolaning o’qish va yozishdagi xatolari uchun past baho qo’yib ranjitmaslik, unga dalda berish, uning hulq atvoridagi ijobiy jihatlarga tayanish, unga qiyinchiliklarni bartaraf qilish mumkin degan fikrni singdirish mihimdir.

- Duduqlanuvchi bolalar bilan alohida suhbatlar qilish, ularning xarakter xususiyatlarini o’rganish lozimdir. Sinf o’quvchilariga duduqlanuvchi o’rtog’i ustidan kulmaslik, uning kamchiligini yuziga solmaslik, unga sinf o’quvchilarining hayrihohligini tashkil qila bilish kerak.

- Duduqlanuvchi o’quvchi savollarga og’zaki javob bergan vaqtida ularga xushmuomalalik bilan yordam ko’rsatish, ulardan darhol katta uzun gaplar tuzishni talab qilmaslik kerak.

- Duduq o’quvchilarning bilimlariga, ularning yozma javobiga qarab baho qo’yish ma’quldir.

- Ulardan chet kishilar bo’lganda og’zaki javob berish talab qilinmaydi.

- Duduq bolalarga baqirib gapirish, masxara qilish, laqab qo’yish mutlaqo noo’rindir.

III. Ko’rish qobiliyati zaif o’quvchilar bilan ishlashda o’qituvchining vazifasi

- Agar sinfda ko’zi yaxshi ko’rmaydigan o’quvchi bo’lsa birinchi navbatda ota-onasiga murojaat qilib, uni ko’z vrachi mutaxassisga ko’rsatishni tavsiya qilish kerak.
- Ba’zida bolaning ota-onasi ko’zi ojizligini yashirishga harakat qiladilar. Oddiy maktab sharoitida ko’zga zo’r berish qanday oqibatlarga olib kelishini o’ylamaydilar. O’qituvchi bu tomonlarini ham ota-onalarga tushuntirib o’tishi lozim.
- Ko’zi yaxshi ko’rmaydigan bolalarni o’z vaqtida aniqlamaslik, ularning ulgurmasligiga, so’ngra esa ta’lim-tarbiyadagi buzilishlarga olib kelibgina qolmay, balki busiz ham ko’zdagi nuqsonni yanada og’irlashtirib yuborishiga sabab bo’lishi mumkin.
- Shuni unutmaslik kerakki, umumta’lim maktab o’quvchisi uchun oddiy bo’lgan ko’pgina mashg’ulotlar masalan egilish, qattiq sakrash, jismoniy tarbiya darsida og’irliklarni ko’tarish kabilar ham bolaning ko’rish qobiliyatiga zarar etkazishi mumkin.
- O’qituvchu sinfda ko’zi ojiz borligini nazarda tutgan holda bunday bolalar uchun alohida ko’rgazmalar tayyorlab, dars o’tishi lozim.
- Bolaning ko’rish qobiliyatini himoya qilish uchun ota-onalar bilan hamkorlikda ko’zoynak taqishni tashkillashtirish lozim.

IV. Aqli zaif bolalar bilan ishlashda o’qituvchining vazifasi

- Umumta’lim maktablarida o’qiyotgan aqli zaif bolalarni bilish faoliyati bilan sog’lom bolalar bilish faoliyatlarini farqlay bilish lozim.
- Sog’lom bolaga qo’yilgan o’quv-dastur talabini aqli zaif bolaga qo’llamaslik.
- Dars jarayonlarida aqli zaif bolalarni o’zlashtirish qobiliyatiga mos keladigan vazifalar berib boorish lozim.

- Bolani darslarni o’zlashtirmasligi uchun o’quvchilar o’rtasida izza qilmasdan, balki uning ayrim yutuqlarini hisobga olib rag’batlantirish choralarini ko’rish.

- Umumiy aqli zaif bolalarni umumta’lim maktablarida o’qitish ishi o’qituvchi oldida ancha murakkab muammolarni keltirib chiqaradi. Bu o’rinda o’qituvchilarimiz ularning ota-onalari bilan hamkorlikda ish olib borishi, bolalarini xarakter xususiyatlarini hisobga olgan holda ular bilan dars jarayonida ish olib borish muhim ahamiyatlidir.

Umuman xulosa qilib aytadigan bo’lsak umumta’lim maktablarida o’z sog’lom tengqurlari qatorida o’qiydigan bolalarga o’qitish va ta’limni to’g’ri tashkil qila bilish har bir o’qituvchini mas’uliyatli burchi bo’lib qolishi kerak.

Nuqsonli bolalarni hayotda o’z o’rnini topishi, kelajakda o’z mehnati evaziga hayot kechirish ko’nikmasiga ega bo’lish, o’qituvchilarimizning oldida turgan asosiy vazifa hisoblanadi.

Imkoniyati cheklangan bolalarni inklyuziv ta’limga jalb qilish Respublikamizning ayrim viloyatlarida, jumladan Farg’ona, Andijon, Xorazm, Toshkent viloyatida tajriba sinov ishlari boshlangan bo’lib, bu ishlarni amalga oshirishda nodavlat jamoalar, xorijiy tashkilotlar tashabbus ko’rsatmoqda. Halkar YuNESKO tashkiloti va Xalq Ta’lim Vazirligi bilan hamkorlikda O’zbekiston Respublikasining ta’lim muassasalarida inklyuziv-korreksion ta’limning tayanch punktlari tashkil etildi. Ular alohida yordamga muhtoj bolalar ta’limi bilan shug’illanuvchi, "Inklyuziv ta’lim" dasturini amalga oshiruvchi yagona punktlar hisoblanadi.

Farg’ona viloyati Qo’qon shahri maxsus ehtiyojga ega bo’lgan bolalarni ijtimoiy qo’llab quvvatlash “Ziyo” markazi umumta’lim maktablariga imkoniyati cheklangan bolalarni jalb etish YuNESKO loyihasi asosida 2004 yil o’z faoliyatini boshladi. Sinov - tajriba maydonlari uchun Farg’ona viloyati Qo’qon va Marg’ilon shahridagi 4 va 5-sonli aqli zaif bolalar, 9-sonli zaif ko’ruvchi bolalar maxsus maktab internatlarida, 64-sonli falaj bolalar bog’cha majmuasi, 39-sonli nutqida nuqsoni bo’lgan bolalar bog’chasi, 1,9-sonli

umumta’lim maktablari, Andijon viloyati 5, 31 - sonli umumta’lim maktablari tanlandi..

Inklyuziv ta’lim borasida tajriba sinov ishlari 2004 yil iyun oyidan boshlangan. Dastavval ma’lumotlar banki yig’ildi. Bu ishga ota-onalar, o’qituvchilar va mahalla qo’mitasi a’zolari jalb etildi. Andijon viloyati 31-sonli umumta’lim maktabining 4-sinf o’quvchisi L.Habibullayev (zaif eshituvchi) 2001-2002 o’quv yillarida resurs pedagog M.Valiyeva tomonidan umumta’lim maktabining inklyuziv sinflarida o’qitila boshlagan. Dastavval unga Xo’jaobod tumanidagi kar-soqovlar maktab-internatiga yo’llanma beralgan, masofa uzoqligi sababli 31-sonli umumta’lim maktabiga jalb etilgan. Resurs pedagog Valiyeva Mamlakatxoning aytishicha, Habullayev Lutfillaga normal bolalar bilan o’qish ilk bosqichda qiyin bo’lgan. Differensial va individual yondashish yordamida asta-sekin qiyiniliklar ortda qolib, bilim, ko’nikma va malakalari hosil bo’la boshladi. Tengdoshlari tomonidan kamsitilmay balki ularning mehr-muhabbatiga sazovvar bo’ldi.

Oripova Yorqinoy Sobirovna rahbarlik qilayotgan Andijon shahar 5-sonli umumta’lim maktabida 78 ta sinf bo’lib, 2619 nafar o’qituvchi tahsil oladi. Shulardan boshlang’ich sinfda 5 ta o’quvchi inklyuziv ta’lim oladi.

Ahmadullayeva Mukarram resurs pedagoglik faoliyatini yuritayotgan 1-D-sinfda Olloberdiyev Muzaffar (Oligofreniyaning debil darajasi), Isxokov Omonullo (mayda qo’l muskullari falajlangan) va Ro’ziyeva Shoxsanam (RRS) inklyuziv ta’lim olmoqda.

Marg’ilon shahar 9-sonli umumta’lim maktabida tahsil olayotgan A.Hakimovning ta’lim-tarbiya olish jarayonini kuzatildi. A.Hakimovning harakat tayanch a’zolari falajlangan bo’lib, nogironlar aravachasida o’tiradi. Inklyuziv ta’limga 4-sinfdan boshlab jalb etilgan. Dastavval o’qish jarayoni bola uchun juda qiyin kechdi, sog’lom tengdoshlaridan nogironligi tufayli ajralib qoldi. Ammo so’nggi kuzatuvlar natijasi shuni ko’ratdii, A.Hakimovni o’rtoqlari do’stona munosabatda tanaffus paytida aravachada yetaklab yurishar, dars paytida esa sinf taxtasi yoniga yetaklib olib chiqishar ekan. Bu kuzatishdan shu narsa ayon

bo’ladiki, maxsus ehtiyojli bolalarni inklyuziv ta’limga jalb etish ularni barcha qatori teng huquqli ijtimoiy jamiyat a’zosi bo’lishini ta’minlaydi.

Inklyuziv ta’lim tizimini joriy qilish loyihasi Xorazm viloyatida ham faol tarzda olib borilmoqda. Bu ishda Xorazm viloyatining bir qator hududlarida halqaro YuNISEF, “Opereyshen Mersi” nodavlat tashkilotlari va RTM maxsus ta’lim bo’limi bilan hamkorlikda tuzilgan rejasiga asosan amalga oshirib kelinmoqda. Inklyuziv ta’limning loyihasi 1999 yildan boshlangan bo’lib, hozirgi kunga qadar davam etib kelmoqda. Loyihaning birinchi bosqichida “Opereyshen Mersi” tashkiloti Xiva tumani Xalq ta’lim bo’limi va Respublika ta’lim markazi bilan hamkorlik rejasiga binoan Xiva tumnida jismonan falaj bolalar uchun 4ta integrasiya sinflari tashkil etiildi. Maktab binolarini ta’mirlash va qo’shimcha hodimlarni ish haqi bilan, bolalarni maktabga muntazam qatnashlari uchun transport bilan ta’minlashni “Opereyshen Mersi” tashkiloti amalga oshirdi. “Opereyshen Mersi” inklyuziv ta’limni butun O’zbekistonga targ’ib qilishni maqsad qilib qo’ygan va ushbu loyiha doirasidagi barcha yangiliklarni Respublika ta’lim markazi maxsus ta’lim bo’limi bilan hamkorlikda amalga oshirmoqda. Loyihaning to’rt nafar a’zosi 2005 yil dekabr oyida “Inklyuziv ta’lim” bo’yicha Respublika koferensiyasida ishtirok etishdi va loyihani keng ommaga tanishtirishdi.

2005 yilning may oyida 6-sonli maktabda yozgi integrasiya oromgohi, birinchi sinflar uchun yangi integrasiya-inklyuziv sinfi tashkil etildi. Kosmobod qishlog’i 6-sonli maktabda tashkil etilgan inklyuziv ta’lim maktabining 4,5,6- sinflari-integrasiya sinflari etib belgilandi. Ikki haftalik seminar davamida 6-sonli maktabda ta’lim olayotgan jismonan nogiron 12 nafar bolalar hamda Xiva tumani 121-sonli maxsus ko’zi ojizlar maktabida ta’lim olayotgan 10 nafar ko’zi ojiz va zaif ko’ruvchi bolalar 6-sonli maktabning 4 va 5 sinflarida ta’lim olayotgan sog’lom tengdoshlari bilan birgalikda ta’lim olmoqdalar. Maktabda turli xildagi do’stona munosabat muhitini tarbiyalash maqsadida amaliy seminarlar uyushitirilmoqda. Amaliy

seminarlar nafaqat bolalarning, balki maktab hodimlarining ham nogironlarga munosabatlarini ijobiy tomonga o’zgartirmoqda.

Loyiha rejasiga binoan har bir sinfda maxsus yordamga muhtoj bolaga ko’mak beruvchi maxsus kurslardan o’tgan resurs o’qituvchi va instruktorlar biriktirilgan.

Yil davamida “Opereyshen Mersi” xalqaro tashkiloti 6, 7 va 9-sonli maktablarning 3 ta integrasiya sinflari bilan ishlashni davom ettirdi.

Respublika ta’lim markazi, xalkaro "Opereyshen Mersi" tashkiloti bilan hamkorlikda, shuningdek YuNESKOning Xorazm viloyatidagi "inklyuziv ta’lim" tayanch muassasalarida 5 ta integrasiya sinflari va 10 ta tayanch harakat a’zolari shikastlangan bolalar uchun yakka tartibda "inklyuziv ta’lim" tashkil etildi.

Bugungi kunda 10 ta umumta’lim maktablarida 50 nafar bolalar inklyuziv sinflarda ta’lim olmokdalar. Ularga resurs pedagog biriktirilgan. Xiva shaxrida pedagoglar, ota-onalar, medisina hodimlari ishtirokida seminar - treninglar tashkil etildi.

Olib borilgan ishlar natijasida imkoniyati cheklangan bolalar ta’limiga jamoatchilik tashkilotlarning munosabati o’zgardi, ota-onalarning bolalarga e’tibori ortdi, ta’lim olishlari uchun qiziqa boshladilar. Eng ahamiyatlisi bola tenqurlari kabi ta’lim olishga erishildi.

Surxondaryo viloyati Termiz shaxridagi "Imkon" markazida 80 dan ortiq rivojlanishida turli nuksonli bo’lgan bolalar inklyuziv ta’limga jalb etilgan.

Halqaro YuNISEF tashkilotining “Inklyuziv ta’lim orqali bolaga do’stona munosabat o’rnatish” loyihasi asosida A.Avloniy nomidagi XTRHMOI maxsus ta’lim kafedrasi mudiri U.Fayziyeva boshchiligida RTM maxsus ta’limi bo’limi mutaxassislari bilan hamkorlikda Farg’ona, Xorazm, Andijon viloyatlarida va Qorqalpog’iston Respublikasida bo’lib, imkoniyati cheklangan ta’limdan chetda qolgan nogiron bolalarni aniqlash va ularni ta’limga jalb qilish maqsadida oilalarga, tashxis markazlariga, XTBlarbo’lib, bolalarni ta’lim tizimiga kiritish masalalari va ular uchun shart-sharoitlar yaratishga oid muammolar ustida to’xtalib

o’tib, umumta’lim pedagoglari va ota onalar uchun trenig-seminarlar o’tkazdilar. (2005-2006 yillar)

“Inklyuziv ta’lim orqali bolaga do’stona munosabat o’rnatish” loyihasi asosida quyidagi natijalarga erishildi:

300 dan ortiq umumta’lim maktablari o’qituvchilari o’qitildi;

80 dan ortiq ota-onalar inklyuziv ta’limning asoslari va nogironlik sabablari xususida ma’lumot va bilimga ega bo’ldilar;

3 ta metodik tavsiya ishlab chiqilib ulardan biri “Inklyuziv ta’lim asosida bolaga do’stona munosabatni shakllantirish” masalalari xususida;

Seminarda ishtirok etgan 330ta o’qituvchi va joylardagi “Tashxis” markazlari rahbarlari yordami bilan 558 ta ta’limdan chetda qolgan ya’ni uyda yakka tartibda ta’lim olayotgan maxsus ehtiyojli bolalar ta’lim tizimiga kiritildi.

Mazkur loyiha asosida hozirgi kunda ham ishlar davam ettirilib, ta’limdan cheta qolib ketgan bolalarni aniqlab, nuqson turi va darajasiga qo’yilgan tashxis xulosasiga ko’ra ta’limga jalb qilish ishlari olib borilmoqda. Inklyuziv ta’lim muammolarni hal qilish bo’yicha joylardagi xalq ta’limi bbo’limlari, mutasaddi tashkilotlar, jamoa tashkilotlari va ota-onalar hamkorlikda Maxsus ehtiyojli bolalarni umumta’lim muassasalari tizimiga to’laqonli jalb qilish bir yillik ish emas, bu ishni bosqichma-bosqich amalga oshirishning konsepsiyasini ishlab chiqish unga va sharoitga qarab qisqa, o’rta va uzoq muddatlarga belgilash, aniq chora-tadbirlar ko’rish taqazo etiladi.

Inklyuziv ta’limni amaliyotga joriy etish ustida olib borilgan tajribalardan shu narsa o’z isbotini topdiki, har qanday imkoniyati cheklangan bolalarni nuqsonini ilk yoshdan o’z vaqtida aniqlab mutaxassislarga murojaat qilinsa va maktabga tayyorgarlik ishi o’z vaqtida olibib borilsa abatta ko’zlangan maqsadga erishish mumkin. Ya’ni inklyuziv ta’limning samarasi yuqori darajada bo’ladi.

2.4. Inklyuziv ta’limni amaliyotga joriy qilish oldida turgan muammolar va to’siqlar.

Inklyuziv ta’lim tizimida jahon miqyosida amaliyotga joriy qilish borasida bugungi kunga qadar ham juda ko’plab muammolar va to’siqlar mavjud. Ular jumlasiga quyidagilar kiradi:

Salbiy munosabat;

Hamjamiyatda ko’rinmaslik;

Moddiy mablag’ muammolari;

Jismoniy moslashtirish;

Sinfdagi o’quvchilar soni;

Qaramlik;

Jinsiy belgilarga qarab kamsitish;

Favqulodda vaziyatlar, mojorolar va qochoqlar.

Salbiy munosabat-maxsus ehtiyojli bolalarning umumta’lim muasasalari tizimida ta’lim tarbiya olaishlari uchun eng katta to’siq bo’lsa kerak. Salbiy munosabat muammosining mazmuni shundaki, ota-onalar, hamjamiyat a’zolari, o’qituvchilar, umumta’lim muassasalari hodimlari, boshqaruv organlaridagi hatto maxsus ehtiyojli bolalrning o’zlaridagi umumta’lim muassasalarida ta’lim tarbiya olishlariga nisbatan qashiliklari va buni istamasliklaridir. Bunga sabab nogironlarga nisbatan insonlardagi noto’g’ri fikr, ular to’g’risida ma’lumotlarning yetishmasligi, nogiron bolalarning chegaralangan muhitda o’sganligi va boshqalardir.

Hamjamiyatda ko’rinmaslik muammosining mazmuni shundaki, ko’pincha ko’plab maxsus ehtiyojli bolalar ota-onalar tomonidan qattiq bekitiladi. Ularni uyga qamab hyech kimga ko’rsatmaydilar, ro’yxatga olish jarayonida nogiron bolasi to’g’risida hyech bir ma’lumot berilmaydi. Natijada ko’plab nogiron bolalar hamjamiyatda ishtirok etishdan mahrum bo’ladilar. Ular to’g’risida hyech bir ma’lumotni bo’lmasligi ta’lim-tarbiya muassasalariga qatnamasliklariga olib keladi.

Moddiy mablag’ muammolari. Jahon miqiyosida ko’pgina davlatlarda maxsus ehtiyojli bolalarni umumta’lim muassasalarida o’qitish juda qimmatga tushadi deb hisoblaydilar. Shuning uchun ham inklyuziv ta’lim tizimini joriy qilish masalasini hal qilmaydilar.

Jismoniy moslashtirish masalasi har bir davlatda mavjud bo’lib, bu mammo asosida maxsus ehtiyojli bolalarni maktabga qatnashi masalasi yotadi. Maxsus ehtiyojli bola maktabga kelgandan so’ng u ko’pdlab muammolarga duch keladi, masalan, binoning ichkarisiga kirish, xonalar bo’ylab harakatlanish, hojatxonaga borish va hokazolar. Inklyuziv ta’limda jismoniy xavsizlik va qulaylik muhimdir.

Sinfdagi o’quvchilar soni muammosi. Sinfdagi o’quvchilar sonining ko’pligi ko’plab davlatlarda maxsus ehtiyojli bolalar uchun inklyuzivlikka to’sqinlik qiladi. Rivojlangan davlatlarda har bir sinfdagi bolalar soni 30 tadan oshmaydi. Ammo rivojlanishdan orqada qolgan davlatlarda esa bir sinfda 60-100 nafar bolaning o’qishi oddiy holdir.

Qaramlik muammosi. Ya’ni bunda maxsus ehtiyojli bolalarning ko’pchiligini doimiy ravishda boshqalar ko’magiga muhtojlini nazarda tutiladi.

Jinsiy belgilarga qarab kamsitish muammosi oqibatida ta’limda o’g’il bollar va qiz bolalarning teng munosabatda bo’lmasligidir.

Favqulodda vaziyatlar, mojorolar va qochoqlar. Favqulotta vaziyatlar, mojorolar va qochoqlar nafaqat nogironlik sababchisi, balki, maxsus ehtiyojli bolalarning zaifligini yanada chuqurlashtirishga sababa bo’ladigan omildir. Jahon miqiyosida esa hanuzgacha bu muammoning yechimlari topilganicha yo’q.

Maxsus yordamga muhtoj bolalarni umumta’lim muassasalari tizimida o’qitish borasida respublikamizda ko’zga ko’rinarli ishlar qilindi. Halqaro tashkilotlar YuNESKO, YuNISEF bilan hamkorlikda inklyuziv ta’lim bo’yicha 8 ta seminar, 6 ta trening-seminarlar va halqaro konferensiyalar tashkil etildi.

Bugungi kunda 10 ta umumta’lim maktablarida 50 nafar bolalar inklyuziv sinflardda ta’lim olmoqdalar.

Olib borilayotgan ishlar natijasida imkoniyati cheklangan bolalar ta’limga jamoatchilik tashkilotlarining munosabati o’zgardi, ota-onalarning bolalariga e’tibori ortdi, ta’lim olishlar uchun qiziqishlari yanada ortdi.

O’zbekistonda imkoniyati cheklangan bolalarni umumta’lim mussasalariga jalb etish, integrasiya asosida ta’limni tashkil etishning o’ziga xos muammolari va qiyinchilaklari bo’lsada u barcha mintaqalarda rivojlanib bormoqda. Imkoniyati cheklangan bolalarga ta’lim berishning noan’anaviy boshqa shakllarini tashkil etishga ham harakat qilinmoqda.

Amalga oshirilgan ma’lum bir darajadagi yutuqlar bilan birga ayrim hal etilishi kerak bo’lgan quyidagi muammolar ham mavjud:

-ota-onalar uchun nogiron bolalarni o’qitish tizimi, inklyuziv ta’lim tizimi haqidagi o’quv qo’llanmalarning yo’qligi;

-maxsus ehtiyojli bolalarni uyda o’qitish uchun mutaxassislarning mablag’ bilan ta’minlash tizimining joylarda talab darajasida yaxshi yo’lga qo’yilmaganligi;

-inklyuziv ta’limni joriy qilish bo’yicha davlat normativ hujjatlarida qayd etilmaganligi;

-nogiron bolalar oilasi bilan maktabning uzviy aloqasi yo’qligi;

-nogiron bolalarni maktabga kelishi uchun transport bilan ta’minlash masalalari;

-chekka qishloqlardagi tashxisning yaxshi yo’lga qo’yilmaganligi;

-nogironlar aravachalari, qo’ltiq hassalar, eshituv apparatlari, ko’zoynaklar, travmotologik poyafzallarning yetishmasligi;

-davlat tomonidan kasb-hunarga yo’altirish, ish bilan ta’minlash, muammolari to’laqonli hal qilinmaganligi;

-nogiron bolalarga qarovchi ota-onalar uchun nafaqaning yo’qligi;

-tevarak-atrof muhitini nogiron bolalarga nisbatan salbiy munosabati;

-nogiron bolalar bilan ishlash mahallalarda yaxshi yo’lga qo’yilmaganligi va nodavlat-notijorat tashkilotlarning faoliyati yetarli emasligi;

-nogiron bolalarning ota-onalaridagi huquqiy bilimining yetarli emasligi va davlat tomonidan belgilangan imtiyozlarni bilmasligi;

-ta’lim muassasalari uchun kadrlarning yetarli emasligi;

-inshoatlarning maxsus yordamga muhtoj bolalar uchun moslashtirilmaganligi;

-malaka oshirish tizimida umumta’lim pedagoglarini maxsus ta’lim yo’nalishi bo’yicha qayta tayyorlash ishlari talab darajasida emasligi va.h.k

Yuqorida keltirilgan muammolarni hal qilish uchun quyidagi masalalar o’z yechimini topish kerak. Ular:

1. Huquqiy yo’nalishda:

"Ta’lim to’g’risida"gi Qonunga Inklyuziv ta’lim haqida modda kiritish;

Imkoniyati cheklangan bolalar va o’smirlarni ijtimoiy va korreksion pedagogik jihatdan qo’llovchi qonun loyihasini tayyorlash;

"Jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo’lgan bolalar va o’smirlarning uzluksiz ta’lim Nizomini tasdiqlash;

Jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsonli bolalar va o’smirlarni uzluksiz inklyuziv ta’lim tizimini takomillashtirish;

-Inklyuziv ta’limni qo’llovchi moliyaviy man’ba mexanizmini aniqlash, uni qonuniy jihatdan himoyalash;

-"Nogironlarni ijtimoiy himoyalash" haqidagi Qonunning bajarilishi yuzasidan takliflar tayyorlash.

2. Ilmiy-metodik yunalishda:

-Imkoniyati cheklangan bolalarga yagona korreksion yordam tizimi Konsepsiyasini ishlab chiqish;

- Metodik majmualar (dastur, darsliq o’kuv reja metodik qo’llanma; va tavsiyalar) yaratish;

- Yangi tahrirdan chiqqan DTSlarini maxsus ta’limga moslashtirish, shuningdek imkoniyati cheklangan bolalarning umumta’lim maktablarida ta’lim

olishlarini inobatga olgan xolda inklyuziv maktabga mos keluvchi variativ o’quv rejalarini ishlab chiqish;

-Respublikadagi imkoniyati cheklangan bolalar va o’smirlarning korreksion yordamga yo’naltirilgan yagona ma’lumotlar bazasini yangi zamonaviy kompyuter texnologiyalari asosida yaratish.

3. Boshqaruv yo’nalishida:

- Alohida yordamga muhtoj bolalar bilan aloqador turli tashkilotlar, bo’limlarni birlashtirib turuvchi, muvofiqlashtiruvchi markaz yaratish;

- Davlatlararo ko’pqirrali rivojlantirishni ta’minlash; (seminarlar, anjumanlar uyushtirish, ish tajriba almashish, jurnallar chop etish va xakozo).

- Imkoniyati cheklangan bolalar va o’smirlarni ijtimoiy moslashish va reabilitasiya qilish bosh muvofiqlashtiruvchi respublika ilmiy-amaliy markazini tashkil etish.

4.Maktab yo’nalishida:

-Inklyuziv ta’limni amaliyotga tadbiq etishda moliyaviy ta’minot va xususiy manba’lardan foydalanishni kengaytirish;

-Inklyuziv maktab uchun kerakli moddiy texnik ba’zani o’rganish bo’yicha takliflar kiritish.

XULOSA VA TAVSIYALAR

Bugungi kunda eng dolzarb bo’lgan muammolardan biri, yani ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalar bilan bog’liq, muhim vazifalar va tizimdagi holat xususidagi masaladir.

O’zbekiston mustaqillikka erishganidan so’ng, barcha sohalarda bo’lgani kabi, bolalarni ijtimoiy himoyalash tizimida ham chuqur islohotlar va o’zgarishlar sodir bo’ldi.

O’zbekistonning huquqiy davlat sifatida rivojlanishi jarayonida Prezidentimiz har bir fuqaroning manfaatini himoyalashda uning jinsi, millati, irqi, yoshidan qat’i nazar qonun ustuvorligini taminlashni asosiy omil sifatida belgilaganlar.

Bugun yurtimizdagi har bir bolaga davlatimizning barcha haq-huquqlaridan to’liq foydalanadigan fuqarosi sifatida qaralishini takidlab o’tishimiz lozim. Xalq talimi vazirligi tomonidan bajarilayotgan islohotlarga davlat tomonidan ratifikasiya qilingan «Bola huquqlari to’g’risidagi Konvensiya» tamoyillari asos qilib olingan. Bu:

- kamsitmaslik masalalari
- yashash va rivojlanish
- bolaning shaxsiy manfaati
- bolaning dunyoqarashi

kabi jihatlarni o’z ichiga qamrab oladi.

Mazkur tamoyillarni amalda qo’llash jarayonida bu vazifaning oson emasligi bilinadi. Bu borada quyidagilarni misol tariqasida keltirish mumkin:

Masalan, internat muassasalarida tarbiyalanayotgan bolalarning ko’pchiligini nogiron bolalar tashkil etadi. Xalqaro tashkilotlarning tavsiyanomalarida deinstitusiyalashda inklyuziv metodni asosiy usul sifatida tatbiq qilish kerak deyilgan. Xo’sh, kar o’quvchining uyidan uzoq,da o’qitilishi uning konvensiyadagi haq-huquqlarini buzadi, deyish mumkinmi? Biz «ha» deb javob beramiz. Chunki bolani «kamsitmaslik» tamoyili va oilasi bilan yashash

huquqidan mahrum etayapmiz. Agar bolani uyiga yaqin joylashgan qishloq umumtalim maktabida 35 nafar o'quvchi talim olayotgan sinfda o'qishga qoldirsak bunda uning «shaxsiy manfaatlari» tamoyilini buzgan bo'lamiz. Bola bu yerda o'ziga yetarli etiborni ololmaydi. Maktabda defektologlarning yo'qligi uchun o'quvchi maxsus muassasadagidek talim ololmaydi, oqibatda rivojlanishda orqada qoladi va kasb egallashga tayyorlana olmaydi. Bundan tashqari, bu o'rinda bolaning «Shaxsiy fikri» tamoyili buziladi.

Xalq talimi vazirligi bilan hamkorlikda Resplika bolalar ijtimoiy moslashuvi markazi tomonidan borilgan izlanishlar shuni ko'rsatadiki, kar bolalarning 99 foizi umumtalim muassasalarida o'qishni xohlashmaydi Ijtimoiy himoyalash bo'yicha dunyoda yetakchi o'rinlarda turgan Shvesiyada ham vaziyat xuddi shunday ekan. U yerda o'quvchilar alohida maxsus internatlarda o'qitiladi. Xuddi shu holni Respublikamizdagi aqli zaif o'quvchilarga mo'ljallangan maktab-internatlarda ham kuzatish mumkin. Shu bois, deinstitusiyalashga, inklyuziv ta'limni kiritishda muhitni chuqur o'rgangan holda, ehtiyotlik bilan ish ko'rish zarur hisoblanadi. Zero, bizning asosiy maqsadimiz har bir bolaning o'z oilasida yashash va bolalar qatorida sifatli bilim olish haq - huquqlarini ta'minlashdan iboratdir. Buning uchun biz murrakkab masalalarni hal qilishimiz, bu ishni turli yo'nalishda olib borishimiz lozim.

Bolalarni ijtimoiy himoyalash yo'lida olib borilayotgan ishlarning samaradorligini oshirish uchun tatbiq etilayotgan dasturlarning doimiy monitoringini olib borish zarur. Bu yo'nalishda Xalq ta'limi vazirligi tomonidan ham muhim ishlar amalga oshirilmokda. Xususan, himoyaga muhtoj bolalar guruhlarini ijtimoiy himoyalash monitoringini olib borish uchun tashkilotlararo ma'lumotlar tuzilib, viloyat, shahar, tuman xalq ta'limi, sorliqni saqlash hamda mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish bo'limlari ishtirokida har bir nogiron bola bo'yicha ma'lumotlar banki tuzilgan. Xalq ta'limi bo'limlari xodimlari tomonidan har bir xonadon o'rganilib, nogiron bolalar aniqlab chiqildi. Natijada 4750 nafar bola o'qishga jalb etildi. Shuningdeq monitoring natijalari uzluksiz ta'lim tizimidagi ta'lim-tarbiyaviy va tibbiy xizmatni 6aholash, xato quyilgan

tashhisni aniqlash, tibbiy-psixologik-pedagogik komissiyalarning ish unumdorligini oshirish bo'yicha tadbirlar ishlab chiqish uchun turtki bo'ladi. Vaziyatni o'rganish natijasida, bugungi kunda respublikamizda ta'limga jalb etilmagan bola deyarli yo'q, deb faxr bilan ta'kidlash mumkin.

Imkoniyati cheklangan bolalarning ta'lim olishida nihoyatda yuqori e'tiborni talab qiluvchi umuta'lim tizimining sohasi hisoblansa, imkoniyati cheklangan bolalar esa jamiyatning ijtimoiy qatlamidir, chunki ularning ko'pchiligi kam ta'minlangan oilalarda voyaga yetganlar.

Inklyuziv ta'lim – bu imkoniyati cheklangan bolalarni barcha zaruriy vositalar bilan ko'pchilik bolalar uchun amalga oshiriluvchi ta'lim tabirlariga jalb etishdir. Shundagina imkoniyati cheklangan barcha bolalar jamiyat hayotida faol ishtirok etishga erishishlari mumkin.

Inklyuziv ta'lim nafaqat ta'lim borasida, balki bolalarning ma'naviy va jismoniy o'sishlari, shuningdek vositalarni iqtisod qilish borasida ham samaralidir.

Xalq ta'limi vazirligi tomonidan maxsus ta'limda o'qitishni inklyuziv va integrallashtirilgan ta'lim asosida olib borish ta'lim siyosatidagi asosiy yo'nalishlardan biri sifatida e'tibor qaratilmokda. Ta'limda inklyuziv yondoshish nafaqat pedagogik hissiy, psixologik jihatdan qulay, bu davlat uchun ham ancha arzon va samarali hisoblanadi. Bu vaziyatda mukammal tayyorlangan eksperimental loyihalar tuzilishi kerak, ular inklyuziv ta'limning ijobiy tomonlari amalda bajarilishini va ularning modellari tarqatilishini ta'minlashi lozim. Ayni vaqtda Xalq ta'limi vazirligi va xalqaro tashkilotlar ishtirokida ta'limni rivojlantirish borasida quyidagi eksperimental loyihalar amalga oshirilmokda.

2001 yilda YuNESKO tashabbusi bilan Respublika ta'lim markazi qoshida inklyuziv ta'lim yo'nalishi bo'yicha Resurs Markazi tashkil etildi. Markazning maqsad va vazifalari imkoniyati cheklangan bolalarga davlat va nodavlat tashkilotlar, ota-onalar, ko'ngillilar tomonidan ko'rsatilayotgan yordam va tashabbuslarni umumlashtirish va jamlashtirishdan iboratdir. Markaz tomonidan umumta'lim x.amda maxsus maktab o'qituvchi va rahbarlari uchun uslubiy

qo’llanmalar ishlab chiqilmoqda va ularning pedagogik malakalarini oshirish maqsadida turli tadbirlar amalga oshirilmokda.

O’zbekistonda inklyuziv-korreksion ta’lim va bolalar ta’lim muasssasalarining asosiy tayanch punktlarini tuzish Xalk ta’limi vazirligi va YuNESKO ning asosiy loyihasi hisoblanadi. Bu dasturni rivojlantirish maqsadida Farg’ona, Xorazm, Namangan, Surxondaryo, Andijon viloyatlarida inklyuziv ta’lim yo’nalishida Resurs Markazi tashkil etildi. Bu markazlar yordamga muhtoj bolalarni o’qitish, rivojlantirish va ularning reabilitasiyam bilan shug’ullanadi hamda inklyuziv yo’nalishdagi ta’limni davlat tashkilotlari va jamoatchilik bilan bo’lgan munosabatlar orqali rivojlantiradi. Mana shu kabi markazlar respublikamizning barcha viloyatlarida faoliyat yuritsa ta’lim sifati yanada oshgan bo’lardi.

Bugun biz bolalarimizni eshitishni o’rganayapmiz.

Xulosa sifatida bir nogiron bolaning keltirmoqchiman:

«Men o’ylaymanki, haqiqiy hayotni bilish uchun insonning do’stlari bo’lishi kerak. Chunki haqiqiy hayot bu atrofdagi insonlar bilan doimiy bog’lanish va muloqotda bo’lishdir. Men, menga yordam berayotgan insonlarsiz hyech narsa qila olmayman. Agar men faqatgina ular bilan muloqotda bo’lishni istamasam, unda do’stlar orttirish yo’llarini axtarishim, izlashim lozim».

Olib borilgan kuzatishlar asosida biz quyidagi tavsiyalarni ishlab chiqdik:

1. Maxsus ehtiyojli bolalarni umumta’lim sharoitida o’qitishni tashkillashtirish;
2. Inklyuziv ta’limni rivojlantirish uchun umumiy ta’lim tizimiga tarkibiy o’zgartirishlar kiritish;
3. Inklyuziv ta’limni joriy qilishda muassasa hodimlarini ish vazifalarida islohotlarni amalga oshirish;
4. O’qituvchi-defektologlar, ota-onalar va boshqa mutaxassislar bilan hamkorlikda ishlashni yo’lga qo’yish;

5. Imkoniyati cheklangan bolaning shaxsiy xususiyatlariga ko’ra yakka tartibda korreksion metod va moslashtirilgan o’quv reja, dasturlar va boshqa omillardan foydalanib, atrofdagi jamoatchilik bilan birgalikda o’qitishning turli shakllarini tashkil qilish;

6. Bolalar uchun ta’lim sharoitini yaratish va ta’lim samaradorligini oshirish;

7. Imkoniyati cheklangan bolalarni ta’lim–tarbiyaga bo’lgan ehtiyojlarni qondirishga mos bo’lgan siyosatni ishlab chiqish;

8. Barcha yoshdagi bolalar atrofida yashayotgan va ishlayotgan bolalar bilan bir xil sharoitda o’qishlari va kamol topishlari zarur;

9. Sinfdagi o’quvchilar soni muammosini hal qilish;

10. Ota-onalar uchun nogiron bolalarni o’qitish tizimi, inklyuziv ta’lim tizimi haqidagi o’quv qo’llanmalar yaratish;

11. Inklyuziv ta’limni joriy qilish bo’yicha davlat normativ hujjatlarida qayd etilishiga erishish;

12. Nogiron bolalar oilasi bilan maktabning uzviy aloqa o’rnatish;

13. Nogiron bolalarni maktabga kelishi uchun transport bilan ta’minlash masalalari;

14. Chekka qishloqlardagi tashxisning yaxshi yo’lga qo’yilishini ta’minlash;

15. Nogiron bolalarning ota-onalaridagi huquqiy bilimini oshirib borish;

16. Ta’lim muassasalari uchun kadrlar yetishtirish;

17. Inshoatlarning maxsus yordamga muhtoj bolalar uchun moslashtirish;

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI

1. Karimov I.A. “Barkamol avlod - O`zbekiston taraqqiyotining poydevori”. Toshkent: Sharq nashriyot-matbaa konserni. 1997.
2. Karimov I.A. O`zbekiston kelajagi buyuk davlat. Toshkent. O`zbekiston. 1992.
3. Karimov I.A. Barkamol avlod orzusi. Toshkent. O`zbekiston. 1995.
4. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat yengilmas kuch. Toshkent. 1998.
5. Karimov I.A. Jahon moliyaviy iqtisodiy inqrirozi, O`zbekiston sharoitida uni barataraf etish yo`llari va choralari. Toshkent. 2009.
6. Karimov I.A. O`zbekiston XXI asrga intilmoqda.-Toshkent: O`zbekiston. 1999.
7. Karimov I.A. O`zbekistonning o`z istiqlol va taraqqiyot yo`li.- Toshkent: O`zbekiston. 1998.
8. Karimov I.A. Yuksak malakali mutaxassislar-taraqqiyot omili.- Toshkent. O`zbekiston. 1995.
9. Karimov I.A. “Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi”. O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo`shma majlisi. 2010 yil.
10. Karimov I.A. Ma’naviy yuksalish yo`lida.-T., “O`zbekiston”, 1998.
11. Karimov I.A. Jamiyatimiz mafkurasi xalqni – xalq, millatni – millat qilishga xizmat etsin. “Tafakkur” jurnali bosh muxarriri savollariga javoblar, 2-son, 1998.
12. O`zbekiston Respublikasining “Ta’lim to`g`risida”gi qonuni (1997 yil 29 avgustda qabul qilingan). Barkamol avlod – O`zbekiston taraqqiyotining poydevori. –Toshkent: O`zbekiston. 1997.
13. O`zbekiston Respublikasining “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” / Barkamol avlod – O`zbekiston taraqqiyotining poydevori. –Toshkent: Sharq nashriyot-matbaa konserni. 1997.

14. “Alohida yordamga muhtoj bolalarni ma’naviy va estetik rivojlantirish” mavzusidagi ilmiy - nazariy konferensiya materiallari. Toshkent-“Uzinkomsentr”-2002 yil.

15. Aminova V.Yu. Integrirovannoye obrazovaniye dlya detey s osobыmi nujdami v doshkolnых i shkolnых uchrejdeniyax massovogo tipa (Metodicheskiye rekomendatsii) MNO RTsO Resursno’y sentr YuNESKO Tashkent 2002

16. “Dakarskiye ramki deystviy”- YuNESKO-2000 yil. Fransiyada chop etilgan. Kislitsina I.K. «Inklyuzivnoye obrazovaniye-obrazovaniye dlya vsex»(osnovnыye ponyatiya i kratkiy obzor mejdunarodnogo opыta) sozdano pri podderjke Yevropeyskogo Soyuza. Tashkent, 2004

17. Ko’rishida muammosi bo’lgan bolalar inklyuziv ta'limi. Tuzuvchi Grigoryants

18. «Inklyuziv ta’lim» muvaqqat Nizomi. 2005 yil.

19. Imkoniyati chyeklangan bolalar va o`smirlar uchun inklyuziv ta'limni tashkil etish to’g’risida muvaqqat NIZOM. O`RXTV T.,19 syentyabr, 2005.

20. “Maktablar hamma uchun”- “Bolalarni qutqaring jamg’armasi” -2002 yil.

21. “Maktablarin olqishlab-inklyuziv maktablardagi nogiron o’quvchilar”- YuNESKO - 1999 yil.

22. Muminova L.R., Ayupova M.Yu. Logopyediya. T., 1995

23. Yuneskoning 2003 yil O’zbekistonda 2 – 4 oktyabr kunlaridagi «Inklyuziv ta’lim» ga oid seminarii xujjatlari.

24. “Problemы v klyucheniya detey so spesalnыmi obrazovatelnыmi potrebnostyami v obsheobrazovatelnыy prosese” Materialы respublikanskogo seminara Almatы.- Almatы «Raritet» 2002 yil.

25. Pulatova F., Oligfryenopyedagogika .G’ofur G’ulom, 2006

26. Roy Mark Konki ”Inklyuziv sinflarda o’quvchilar ehtiyojlarini anglash va bu ehtiyojlarni qondirish” Toshkent-YuNESKO-2004yil. O’qituvchilar uchun qo’llanma. Raxmanova V.S Maxsus pyedagogika G’ofur G’ulom nashriyoti, Toshkyent, 2004

27. Sodiqova G.A., Nurkyeldiyeva D.A. Rivojlanishi orqada qolgan bolalar diagnostikasi (ma'ruzalar matni) T., 2001

28. Surdopedagogika pod red. NikitinoyM.I. M., Prosvesheniye, 2002

29. “Ta’lim hamma uchun milliy dasturini joriy qilish masalalari” mavzusidagi ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. Toshkent-2005 yil.

30. Ture Yonson ”Inklyuziv ta’lim”-“Opereyshen Mersiy” Toshkent-2003 yil. O’qituvchilar uchun qo’llanma.

31. FayziyevaU.Yu., Abdurazakova D.Do`stona munosabat muxitidagi maktab. O`XTV Avloniy nomidagi XTRXMOMI, BMT Yunisyef.XBJ. T., 2005.

32. FayziyevaU., Nazarova D., Kolbayeva X.J.Eshitishida muammolari bo’lgan bolalar inklyuziv ta'limi. O`XTV Avloniy nomidagi XTRXMOMI, BMT Yunisyef. XBJ. T., 2005.

33. O’quvchilarni kasb-hunarga yo’naltirish va psixologik-pyedagogik tashxis markazlari Nizom. T., 2005

34. Shomaxmudova R. Bolalar talaffuzidagi nuqsonlarni bartaraf etish. T., 2001

35. “Halqaro forum materiallari”-Toshkent - Respublika bolalarni ijtimoiy adaptasiyalash - 2005 yil.

M U N D A R I J A

KIRISH……

I-BOB. Inklyuzv ta’lim va uningo’ziga xos xususiyatlari.

1.1**.** Inklyuziv ta’lim va uning moxiyati. ……

1.2**.** Inklyuziv ta’limni joriy qilish davr talabi sifatida…….

1.3.O’zbekiston Respublikasida inklyuziv ta’lim tizimining joriy etilish masalalari……

II-bob. Inklyuziv ta’lim tamoyillari va ular mazmuni

2.1**.** Inklyuziv ta’limning asosiy tamoyillari. ……...

2.2. Inklyuziv ta’lim maqsadi va vazifalarini oshirishda resurs o’qituvchining o’rni va roli……

2.3. Umum ta’lim maktablari tizimidagi nuqsonli o’quvchilarning inklyuziv ta’limini tashkil etishning maqsad va vazifalari. ……

2.4. Inklyuziv ta’limni amaliyotga joriy qilish oldida turgan muammo va to’siqlar……